

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida davlat tili bilan bir qatorda xorijiy tillarni o`rganish ham davlat siyosati sifatida tarkib topdi. Chunki O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimov istiqlolning birinchi kunlaridan O`zbekiston ahli, ziyolilari, ayniqsa, yoshlarini hech bo`lmasa, rivojlangan mamlakatlarning birortasi tilini bilishga da`vat qildi¹. Chunki xorijiy tillarni bilgan kishi tafakkur olami, bilim doirasi, xalqaro munosabatlarni tushunish va idrok etish imkoniyatlari eshiklari ochiladi. Bu olamshumul da`vat, fikr va mulohazalar Yurtboshimizning deyarli barcha chiqishlarida, yoshlar va ilm ahli bilan uchrashuvlarida asosiy leytmotiv o`laroq jaranglaydi. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni<sup>2</sup>, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”<sup>3</sup> va 2012-yilning dekabr oyida “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori⁴ shu kabi buyuk g`oyalarni hayotga tatbiq etishi, yosh avlodni xorijiy til, xorijiy intellektual mulkni chuqur egallashga yo`naltirilgani bilan alohida e`tiborga molik. Bu holat xorijiy chet tillar mutaxassislari va ular ustida ilmiy izlanishlar olib borayotgan vatandoshlarimizdan bu borada chuqur tafakkur qilishni, chet tillarni o`qitish bo`yicha turli yo`nalishdagi tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi ham yurtboshimiz tomonidan oldimizga qo`yilayotgan ulug`vor vazifalarning yechimiga qaratilganlik bilan tavsiflanadi.

Malumki jahon adabiyotida Sharq sheriyatiga qiziqish asrlar davomida so`nmagan. Bu qiziqish XX asrda yanada kuchaydi. Shu bois bugungi kunga kelib, Sharq shoirlari asarlarining g`arb tillariga jumladan, inglizchaga tarjimalarini tahlil qilish, bu sohada to`plangan tarjimalarini umumlashtirish, ilmiy xulosalar chiqarish o`zbek tarjimashunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo`lib qolmoqda.

¹O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining 1992-yil 20-iyuldagi “O`zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o`qishga yuborish to`g`risida”gi №334 sonli Qarori.

²Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.// Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: Шарқ, 1997.

³Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”// Баркамол авлод—Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.:Шарқ, 1997.

⁴O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda “Chet tillarni o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-1875-sonli Qarori.

Fors she'riyatining buyuk namoyondalaridan hisoblangan Umar Xayyom ruboiyoti 100 dan ortiq marotaba ingliz tiliga tarjima qilingan. Ammo Xayyom she'riyatining ingliz tiliga tarjimasidagi barcha jihatlar tahlil etib ulgurilmagan. Bu dissertatsiyada Umar Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjimalarida obrazli uslubiy vositalarning qo'llanilishi va milliy-koloritning ifodalanishi o'rganib chiqiladi. Shunday ekan bu betakror she'riyatning ingliz tarjimonlari tomonidan qayta yaratilishi jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish lozim. Chet tillarini o'rganish barobarida, sharq adabiyoti durdonalari namunalarining ingliz tiliga tarjimasidan biroz xabardor bo'lish ham har birimiz oldimizga qo'ygan vazifa bo'lmog'i darkor.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Tadqiqotimiz obyekti qilib Umar Xayyom "Ruboiyot" ining Edvard FitzJerald, Edvard Vinfild, A.J.Arberri, Edvard Gern-Allen, Richard Le Gallien va Artur Talbotning ingliz tiliga qilingan tarjimalari olindi. Bu tarjimalarning tahlili va sharhi uning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur magistrlik dissertatsiyasini yozishdan maqsad Umar Xayyom she'riyatining ingliz tiliga tarjimalari sharhi va tahlilini o'rganish va yoritib berishdan iborat. Tadqiqotimiz maqsadi oldimizga quyidagi vazifalarni qo'yishni taqazo etdi:

- Umar Xayyomning hayoti va ijodini o'rganish;
- Fors adabiyotining ingliz adabiyotiga kirib borish to'g'risida ma'lumotlar berish;
- Umar Xayyom "Ruboiyot" ining ingliz adabiyotida tutgan o'rnini tahlil qilish;
- Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjimalari bilan yaqindan tanishish;
- Bu tarjimalar haqida tanqidiy fikr-mulohazalarni o'rganish;
- Umar Xayyom she'riyatining ingliz tiliga tarjimalari sharhi va tahlilini

o'rganish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini misollar yordamida ochib berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu dissertatsiya himoyasida quyidagi holatlar muhokama uchun kengash a'zolari hukmiga havola etiladi:

1. Umar Xayyomning X-XI asr Sharq va Fors adabiyotida tutgan o'rni va jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi;
2. Fors adabiyotining g'arb tillariga, jumladan ingliz tiliga tarjima qilinishining o'ziga xos xususiyatlari;
3. Umar Xayyom ruboiylarining dunyo adabiyotidagi mavqeyi va ingliz tiliga tarjimalari;
4. "Ruboiyot"ning ingliz tiliga tarjimalari tahlili, undagi turli mavzularning sharhi;
5. Tarjimada obrazli uslubiy vositalarning qayta yaratilishi va milliy koloritning ifodalanishi.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilm-fan, ta'lim tarbiya va chet tillarni o'rganishga doir asarlari va farmonlari, soha mutaxassislarining, jumladan, Seyyed Hossein Nasr va Mehdi Aminrazaviy kabi olimlar, Habibulloh Mashhadiy, Mahbube Noura, Ali Sabziy, Morteza Zohdi kabi ilmiy tadqiqotchilarning mavzuga doir asarlari, ruboiylar tahlili keltirilgan ilmiy adabiyotlar, shuningdek, Edvard FitzJerald, Artur J.Arberri, Edvard Vinfield, Edvard Gern-Allen, Richard Le Gallien va Artur Talbot kabi mualliflarning Xayyom ruboiylarining tarjimasi va bu tarjimalar to'g'risida tanqidiy qarashlari keltirilgan ilmiy maqolalar ushbu tadqiqot ishining metodologik asosini hosil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Biz tadqiqotimizning mavzusini yoritishda qiyosiy va analitik - stilistik tahlil kabi metodlaridan foydalandik.

Tadqiqotning natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik tadqiqoti davomida qo'lga kiritilgan natija va xulosalar Fors adabiyoti,

chet el mumtoz adabiyoti, stilistika, adabiyotshunoslik nazariyasi, tarjimashunoslik kabi fanlarning tegishli o`rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, bu natija va xulosalardan yuqorida zikr etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug`atlar yaratishda bimalol foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida Umar Xayyom she'riyatining ingliz tiliga tarjimalari o`rganilib, tahlil qilinadi va Umar Xayyom ruboiylaridan olingan misollar yordamida ochib beriladi. Ilmiy ishimizning yangiligi shundan iboratki, faqat Umar Xayyom ruboiylarining butun dunyoga yoyilishi bilan cheklanmasdan Sharq mumtoz adabiyoti namunalarini tarjimalarda qayta yaratish va tahlil etishda obrazli uslubiy vositalar bosh masala ekanligini har taraflama isbotlashga harakat qilindi. Chunki Sharq mumtoz she'riyatida qo'llanadigan turli badiiy san'atlar she'riy musiqadorlikni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun Xayyomning har bir ruboiysidagi obrazli uslubiy vositalar tarjimon oldiga maxsus va alohida muammolar qo'yadi. Ilmiy tadqiqot ishimizda Xayyom she'riyatidagi milliy xos so'zlar(realizmalar) tarjimasi ham tadqiq etildiki, bu masala sharq she'riyatidan g'arb tillariga o'girishda asosiy masalalardan biridir.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, boblar ichida olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. JAHON ADABIYOTIDA UMAR XAYYOM

1.1.Umar Xayyom – mohir soʻz sanʼatkori

Adabiy asarlar xalq ommasiga katta taʼsir oʻtkazishi hammaga maʼlum. Ularning asosiy vazifasi – insonlarning maʼnaviy dunyosini boyitishdan iborat. Darhaqiqat, adabiyot kishilarga yuksak insoniy qadriyatlar, axloq-odob, yaxshi sifatlarni shakllantirishi, borlarini rivojlantirishi kabi ezgu niyat va ishlarga xizmat qilmogʻi darkor. Islomiy adabiyot aynan ana shu maqsadlarga xizmat qilishi ila boshqalaridan yaqqol ajralib turadi.

Oʻzbek adabiyoti oʻzining taraqqiyot bosqichida arab, fors-tojik xalqlari yozma adabiyoti va ogʻzaki ijodi bilan uzviy rivojlanib keldi. Bu xalqlar adabiyoti faqatgina til nuqtai nazaridagina farq qiladi. Obrazlar tizimi, badiiy-tasviriy vositalarga koʻra fors-tojik va turkiy adabiyot orasida keskin farqlar koʻzga tashlanmaydi. Sharq adabiyotining bilimdoni E.Bertels bu haqda shunday yozgan edi: «Aslida biz mavzu, uslub, tashqi koʻrinishi bir xil faqat tildagina farq boʻlgan yagona adabiyotga egamiz».⁵

X-XIII asrlar oʻzbek adabiyoti tarixida alohida bir davr boʻldi. Bu asrlarda Oʻrta Osiyo jahon madaniyati va ilm-fanining oʻchoqlaridan biriga aylandi. IX-X asrlardan boshlab, yaʼni Oʻrta Osiyo va Eronda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelgan davrdan boshlab fors-tojik tilidagi adabiyot keng koʻlamda taraqqiy qilgan edi. Bu davrda Somoniylar davlatining Xuroson, Hirot, Balx, Gurgon kabi siyosiy markazlarida adabiy hayot ancha jonlangan edi. Abu Abdullo Rudakiy, Firdavsiylar asos solgan fors-tojik adabiyoti Oʻrta Osiyo xalqlari, jumladan, oʻzbeklar uchun nihoyatda yaqin edi. Madaniy hayotning tasviriy sanʼat, meʼmorchilik, musiqa kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishdilar. Rus olimi N.I.Kondrat ham, gʻarbdagi eng yirik eronshunos va adabiyotshunos E.Braun ham bu davrni haqli ravishda „sharq uygʻonish davri“ deb atashgan.⁶

Bu davrga kelib turkiy adabiyot bilan doimo yonma-yon, hamnafas boʻlgan, unga samarali ijodiy taʼsir koʻrsatib kelgan fors-tojik adabiyoti nihoyatda

⁵ Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: “Maʼnaviyat”, 1999. – B. 170.

⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture

rivojlandi. Bu davrda Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Nosir Xisrav, Amir Xisrav Dehlaviy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Farididdin Attor kabi zabardast forsigo'y so'z san'atkorlari yetishib chiqishdi. Firdavsiy shoir Daqiqiy boshlagan asar – "Shohnoma"ni bitkazib, nomi jahonga mashhur bo'ldi. Nizomiy o'zining "Panj ganj" deb nomlangan xamsasi bilan xamsachilik an'anasiga asos soldi. X.Dehlaviy nomi ham iste'dodli xamsanavis sifatida tarixda qoldi. U.Xayyomning shuhrati olamga ketgan ruboiylari shu davrda yaratildi. Hofiz Sheroziy, Sa'diy, F.Attorlarning mazkur davrda ijod etilgan asarlari nafaqat fors-tojik, balki o'zbek adabiyoti vakillari uchun ham asrlar davomida adabiy ta'sir manbai bo'lib keldi.

X-XIII asrlarda fors-tojik tili o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayoti taqozosiga ko'ra dastlab somoniylar, keyinchalik g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar ta'siri ostida bo'lgan keng hududda katta mavqega ega bo'lgan. Natijada faqat tojiklarning o'zlarigina emas, o'zbek, ozarbayjon, turkman, hatto hind adabiyoti namoyandalari ham o'z asarlarini shu tilda yaratganlar. Shunday qilib, bu davrda fors-tojik tilidagi adabiyot taraqqiyotida o'zbek, ozarbayjon va boshqa xalqlarning ham hissasi mavjud. Muhimi shundaki, shu umumiy jarayonda, lirika, epik poeziya keng taraqqiyot yo'liga chiqib oldi.⁷

Mazkur davrda yashab-ijod etgan, o'zbek nazm muxlislari orasida o'z o'rniga ega forsigo'y so'z san'atkorlaridan biri – Umar Xayyomdir. Ulug' faylasuf, shoir, munajjim, matematik va tabib bo'lgan G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy Eronning Nishopur shahrida tug'ilgan. Aniq fanlar sohasida o'z davrining yagonasi bo'lgan olim tomonidan tuzilgan taqvim, manbalarining yakdillik bilan guvohlik berishicha, amaldagi Grigorian kalendaridan ham aniqroq bo'lgan. Uning riyoziyot, ilmi nujum va falsafaga oid bir qancha asarlari bizgacha yetib kelgan.

Umar Xayyom Nishopur, Balx, Buxoro shaharlarida o'qiydi. Rivoyatlarga qaraganda Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk unga Nishopur hokimligini taklif qiladi.

⁷ Шомухамедов Ш. Гуманизм – абадийлик ялови. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. 50-бет

Lekin Xayyom bunga: “Men odamlar ustidan hukmronlik qilolmayman”, degan ma’noda javob beradi, Xayyomning bir ruboiysi ham shu mazmunda:

Kimningki, bor esa bir burda noni,
O`ziga yarasha uy-oshiyoni.
Na birov unga qul, na u birovga,
Ayt, shod yashayversin, xushdir zamoni.⁸

“Xayyom” taxallusi shoirga bir vaqtlar otasi chodir tikish bilan shug`ullangani uchun berilgani taxmin qilinadi. Shoirning o`zi ham Nizom-ul mulk uni saroyga olib kelguniga qadar shu kasb bilan shug`ullangani to`g`risida qarashlar bor. Vaholanki, ko`pgina fors shoirlari qanday kasb bilan kun kechirishgan bo`lsa shuni o`z taxalluslariga aylantirib olganlar. Bunga Attor (dori-darmon sotuvchi), Assor (yog` bosuvchi) kabi mashhur fors adabiyoti namoyondalarining taxalluslarini misol qilib olsak bo`ladi. Xayyom - «xayma» - chodir so`zidan olingan bo`lib, chodirdo`z ma'nosini beradi. Shoir Umarning o`zi ham to`rt misralik bir ruboiysida shunga ishora qiladi:

Hikmat chodirini tikladi Xayyom,
Andux ko`rasida yondi ul nokom.
Umr ipin kesdi ajal qaychisi,
Xizmatiga oxir shul erdi in`om.⁹

U 1074-yildan boshlab Isfaxon rasadxonasi ishlariga rahbarlik qilib, matematika, astronomiya sohasida tadqiqotlar olib boradi. Uning matematika, falakiyotshunoslik, falsafaga oid bir qancha asarlari va kashfiyotlari ma'lum.

Shuningdek, Xayyomning ba'zi bir ruboiylarini klassik astronomiya va tabiiyot fanlarini yaxshi bilmasdan turib anglab bo`lmaydi. Masalan:

Govest dar osmonu nomash Parvin,
Yak govi digar nuhufta dar zeri zamin.
Chashmi xiradat boz kun az ro`yi yaqiyn,
Zeru zabari du gov mushte xar bin.¹⁰

⁸ Umar Xayyom “Ruboiylar” Tarj. Shoislom Shomammedov. T: Adabiyot va san’at, 1970, 18-bet

⁹ O`sha manba 40-bet

Mazmuni:

Osmonda bir ho'kiz bor, uning nomi Parvin,

Yana bir ho'kiz yerning ostida yashirin.

Aql ko'zingni yaqiy (qat'iy ishonch) bilan och:

Ikki ho'kiz (osmon bilan yer) o'rtasida bir to'da eshakni ko'r.

Umar Xayyom bir necha asarida ulug' olim Abu Ali ibn Sino fikrlarini targ'ib etadi. Uning sodiq shogirdi sifatida olim fikrlarini davom ettiradi. Xayyomning Ibn Sinoga ixlosi va ehtiromi yuksakligidan bo'lsa kerak, ba'zi rivoyatchi va tarixchilar uni Ibn Sino huzurida ta'lim olgan, degan yanglish xulosalar ham chiqarishgan. Lekin bu – haqiqatdan ancha yiroq fikr. Chunki buning uchun Xayyomning yoshi yuqorida zikr etilgan ustozlaridan ham kattaroq bo'lishi kerak edi. Xayyom Ibn Sinoning haqiqiy shogirdi, uning eng sadoqatli va matonatli izdoshi bo'lgani aniq. Uning doimo Ibn Sino ruhidan madad olibturgani, asarlari va qarashlaridan bahra olgani shogird deb hisoblanish uchun yetarli, albatta.

Bir kuni Abulbarakot Bag'dodiy muridlaridan bo'lgan Ray hokimi – Alouddavla Xayyomga piri ustodining Sino qarashlarini ayovsiz tanqid qilgani haqida gapirar ekan, bu haqda uning nuqtai nazari qandayligini so'raydi. Xayyom: “Abulbarakot Ibn Sinoning hatto bitta so'zini ham tushunmagan ko'rinadi, shunday ekan, qanday qilib uni tanqid qila olishi mumkin?” – deb javob beradi.¹¹ Xayyomni Ibn Sino bilan chambarchas bog'laydigan yana bir dalil bor: ba'zi tarixchilar, xususan Safadiy va Qutbiddin Mahmud Sheroziylar o'z asarlarida Xayyomning Sinoning eng mashhur shogirdi bo'lgan Bahmanyorga shogird tushganligi haqida ma'lumot berib o'tadilar.¹² Ma'lumotlarga qaraganda, Xayyom bir muddat o'sha davrlarda katta ilmiy markazlardan biri bo'lgan Samarqandda ham ilm tahsili bilan shug'ullanib, qadimiy Turon xalqlarining hikmat va ma'rifat

¹⁰ Furo'g'iy M., G'aniy Q. “Umar Xayyom Nishopuriy. Ruboiyot. Tehron: “Ketob-e fo'ruzon”, 1362 (1983).107-bet

¹¹ O'sha manba – 36 bet

¹² Zakovatiy Q.A. Xayyom qarashlariga oid mulohazalar. // “Sino”, 2011, №41-42. 85 bet

bulog'idan bahra olgan. Buni mutafakkirning ham ilmiy asarlari, ham falsafiy ruboiylaridan bilsa bo'ladi.

Dunyo falsafasi bilan shug'ullanish, mavjudotning sirini izlash bilan birga, 1077-yilda u yunon olimi Evklid kitobiga sharh yozib, butun sonlarning ildizini topish yo'llarini ko'rsatib beradi. Besh yil qattiq tekshirishlar olib borgandan keyin, 1079-yilda Xayyom yangi isloh qilingan kalendar ishlab chiqaradi. Bu kalendar Yevropada undan 500 yil keyin qabul qilingan va hozirgi vaqtgacha qo'llanilayotgan Grigorian kalendaridan ham aniqroq bo'lgan. Shuningdek, "Risolatul-kavn vat-taklif" ("Koinot va uning vazifalari"), "Risola fil-vujud" ("Borliq haqida risola"), "Risola fi kulliyati vujud" ("Borliq umumiyliigi haqida risola") kabi asarlar muallifi jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan olim, o'rta asrning zabardast mutafakkirlaridan biri, o'z davrining yorqin yulduzlaridan bo'lib, ilk o'rta asrining bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarqqqiyoti uning nomi bilan bog'liqligini alohida qayd etish lozim.

Xayyom davrida bu muqarrar katta ilmiy jasorat edi. O'rta asr olimlari hayotining nechog'lik og'irligini Umar Xayyomning o'z so'zlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Umar Xayyom o'zining "Risolayi Jabr" kitobi muqaddimasida: "Biz ilm ahlining inqirozini boshdan kechirdik, ko'p jafo ko'rgan bir kichik guruhgina qoldi, xolos. Endi bizning zamon donishmandlarining aksariyati rostni yolg'on bilan gapiradilar, bilimda shuhratparastlikdan nariga o'tolmaydilar. Agar ilm bobida biror narsa bilsalar, uni ham faqat tuban maqsadlar va o'z maishatlari uchun sarf qiladilar. Agar biror kishi haqiqatni qattiq talab qilsa, to'grilikni afzal ko'rsa, firib va yolg'onni rad etishga harakat qilsa, riyokorlik va hiyladan xalos bo'lishga azm qilsa, uni haqorat qiladilar, masxaralaydilar", deb yozgan edi.¹³

Umar Xayyom shaxsi va uning ijodi borasida fikr-mulohazalar qarashlar turlicha. Xususan, diniy ulamolardan Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Solih "Zikr ahlidan so'rang" risolasida Alloma Abu Nasr Mubashshir Taroziyning "Kashful Lison ar ruboiyyat Umarul Xayyom" asariga tayangan holda, Xayyom

¹³ Умар Хайем. Рубоийлар.// Тўзувчи Ш.Шомухаммедов. / . – Т.: «Шарк»,2003 Б-10

ruboiy yozmagan, balki unga nisbat berilgan ruboiylar botiniylar tomonidan yozilib, uning nomi bilan tarqatilgan, degan xulosaga keladilar.¹⁴

Xayyom ruboiylarining sonini 100 dan 300 gacha va hatto undan ortiqroq ham deb hisoblashadi. Bu haqda fikrlar turlicha. Jumladan, Sodiq Hidoyat bu borada shunday deydi: “Xayyom ruboiylarining Sherozda 865 (h.q.) yili kitobat qilingan qo’lyozma nusxasi 525 raqami ostida Oksforddagi Bodlen kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxada bor-yo’g’i 157 ta ruboiy mavjud. Holbuki, Xayyomga mansub deb topilgan va Abu Said Abulxayr, Afzal Koshoniy va Mavlaviy kabi boshqa shoirlar va mutasavviflarning ruboiylari bilan adashtiriladigan ruboiylar bugungi kunda 500 tadan 750 taga yetadi”.¹⁵ Nima bo’lgan taqdirda ham, bir guruh olimlar taxminan 178 ta ruboiyni Xayyomning o’ziniki deb hisoblashgan.

Sharq adabiyotida ruboiy janrida ijod qilgan shoirlar ko’p. Ko’pgina olimlar tomonidan ruboiy janrining ixtirochisi deb tan olingan fors-tojik mumtoz she’riyatining gultoji – Abu Abdulloh Ja’far bin Muhammad Rudakiy Samarqandiydan (858-941) tortib, Ibn Sino, Abu Said Abulxayr, Farididdin Attor, Mavloni Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Bedil, Soyib Tabriziy kabi ko’plab shoirlar go’zal ruboiylar bitganlar. Hatto ulardan ba’zilarining ruboiylarini bir joyga to’plasa, alohida devon bo’ladi.

Xayyom ruboiy janrini ham shakl, ham mazmun jihatidan yangi takomil bosqichiga olib chiqdi. Xayyom ijodini qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan o’rganib, ilk “Xayyomnoma”ni yaratgan taniqli o’zbek olimi, Najmiddin Komilov aytganidek, “U Abu Nasr Forobiy, Ibn Sinolarning, Rudakiy va Firdavsiylarning, Abunuvos, Abula’lo al-Maarriylarning qarashlarini davom ettirdi va falsafiy she’riyatni gullatdi, ruboiy janrini eng baland cho’qqiga ko’tardi”.¹⁶

Darhaqiqat, Umar Xayyomni dunyoga mashhur qilgan uning ruboiylaridir. Shoir hayot haqida ba’zi mulohazalarini 4 qatorlik she’r qilib qog’ozga tushirib

¹⁴ http://www.kutubxona.com/Umar_Xayyom._Ruboiyot

¹⁵ Olson D. and M., 'Zodiac Light, False Dawn, and Omar Khayyam', The Observatory, vol. 108,(1988) p. 181-182

¹⁶ Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: “Ma’naviyat”, 1999. – B. 184.

qo'yavergan. Xayyom ruboiylarining soni turli ma'lumotlarda 11 tadan 1200 tagacha ekanligi aytiladi. Artur Kristensen Xayyom qalamiga mansub haqiqiy ruboiylari sonini 121; Sodiq Hidoyat – 143; Muhammed Ali Furug'iy – 1782 ta deb belgilaydi. Ali Dashtiy esa 75 tasini haqiqiy va 26 tasini shunga yaqin deb ta'kidlaydi.¹⁷ 1952-yilgi yangi nashrdan chiqarilgan to'plamning kirish qismida A.J.Arberri sharhlashicha, Xayyom hech qachon ruboiylarni to'plam tarzida saralamagan.¹⁸ Uzviy davom etgan an'anaviy tadqiqotlar natijasi kelib chiqqan Xayyom haqidagi chalkash fikrlar majmuasidan ko'rish mumkinki, E.J.Braunning 1902 – yilgi tez-tez uchraydigan so'zlari haqiqatga yaqinligini kuzatish mumkin.¹⁹ U o'z ruboiylarida ham ilmiy-falsafiy kitoblarida bo'lganidek olam sirlari, hayot haqiqatini izlaydi, bu boradagi fikr-u o'ylarini ajoyib she'riy siymolarga o'rab, mo'jizakor to'rtliklarda ifodalab beradi.

Umar Xayyom yozadi:

Tokay qosh chimirtirar dunyo tashvishi,
Murodga yetkazmas ko'ngil g'ish-g'ishi.
Sen, mening ishimiz erkimizdamas,
Qazoga ko'nikish – donolar ishi.²⁰

Ruboiyda dunyoviy tashvishlardan baland tura olish, olam sirlariga tafakkur yuksakliklaridan nigoh tashlab, taqdiriga rozilik, shukronalikda yashash oqil bandaning tutumi ekanligi haqidagi diniy-ilohiy va falsafiy-didaktik fikr ilgari suriladi. Shoir falsafiy umumlashmalarida o'tkinchi dunyo hoyu havaslariga bog'lanib qolish kishini asl mohiyatini anglashdan yiroqlashtirishi muqarrarligiga ishora qilinadi.

Umar Xayyom o'zini sira ham shoir deb hisoblamagan. Ruboiylarini ilmiy izlanishlardan charchagan paytida turli daftarlarning hoshiyasiga bitgan. Qismat o'yinini qarangki, olim o'z umrining asosiy qismini sarflagan fanning turli

¹⁷ Jermin S. "Loaves of Bread and Jugs of Wine: Three translations of Omar Khayyam" – a research article in Meta, XXXIV,2,1989. P:10

¹⁸ Avery P. and Heath-Stubbs J., The Ruba'iyat of Omar Khayyam, (Penguin Group, 1981) p:87

¹⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Omar_Khayyam

²⁰ Умар Хайем. Рубоийлар.// Тузувчи Ш.Шомухаммедов. / . – Т.: «Шарк»,2003 Б-46

sohalaridagi buyuk kashfiyotlari bir chekkada qolib, u ikkinchi darajali hisoblagan ruboiylari Xayyom nomini dunyoga taratdi.

Xayyom davrida va undan keyin ham uzoq vaqt davomida Sharqda kitob nashr etishni kashf etilmaganligi sababli uning qimmatli she'riyati Yevropaga o'z vaqtida yetib bormagan. XVI asrda Eron madaniyatini o'rgangan Yevropa olimlari uning ismi bilan yaxshi tanish emas edilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Umar Xayyom Eron va O'rta Osiyoda go'yo unutilgan, degan fikr paydo bo'ldi.

XVIII asrga qadar uning ruboiylari haqida tadqiqotlar olib borilmagan. U haqida dastlab Oksford universiteti professori Tomas Gayd, undan so'ng Fon Gomer Birgestel va Meme Nikoloslar tadqiqot olib borishgan. 1859 yili ingliz shoiri va tarjimoni Edvard FitzJerald Umar Xayyomning 70 ruboiysini tarjima qilib e'lon qilgandan so'ng, bir qancha omillar sababli, hammaga mashhur bo'lib ketdi. Jerald bu tarjima haqida o'z ustozlari Govlga yozgan maktubida, "men bu ruboyilarni o'z aslidek tajrima qilmadim, ba'zi juziyotlarini saqlab qolgan holda, bir-biriga aralashtirib o'zgartirdim", deb ta'kidlaganini alloma Taroziy keltirdilar. Bu tarjimaga g'arbda shunday ahamiyat berildi-ki, u barcha yurtlarda qayta-qayta chop etildi. U ruboiyotning asli deb qabul qilindi. So'ngra arab, urdu, turk va boshqa sharq tillariga ham inglizchadan tarjima qilindi.²¹

Eron olimi Muhtaboh Minaviyning "Xayyom haqidagi daqiqiy tadqiqotlar" ma'lumotlariga qaraganda, faqat 1929-yilgacha Yevropa va Amerikada shoir Umar Xayyom haqida yozilgan kitoblar va maqolalar soni 1500 dan oshib ketgan. Ustod Said Nafisiy esa shunday yozadi:

"Mening hisobimcha, Xayyom ruboiylari 32 marta ingliz tiliga, 16 marta fransuz tiliga, 12 marta nemischa, 8 marta rus va arab tiliga, 5 marta italyan, 4 marta turkiyga, 2 marta daniyaliklar tiliga va boshqa tillarga tarjima qilinib chop etilgan. E.FitzJeraldning inglizcha tarjimasining o'zigina 1925-yilgacha 139 marta chop etilgan".²² Umar Xayyom adabiy merosini o'rganish borasida rus olimlari V.Jukovskiy, K. Smirnov, A.Bolotnikov, S.Mornchik, M.Zand, fransuz olimi

²¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Umar_Xayyom

²² Умар Хайем. Рубоийлар.// Тузувчи Ш.Шомухаммедов. / . – Т.: «Шарк»,2003 Б-46

Nikolas, daniyalik A.Kristensen, nemis olimi F.Rozen va G.Remnis, vengir olimi Sillik, hind olimi Svami Govinda Tirtxa hamda eron olimlari Muhammad Ali Furug'iy, doktor G'aniy, Sodiq Hidoyat, Sayyid Nasafiylarning olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Xayyom ijodiy merosi o'tgan asrlardanoq o'zbek adabiyoti muhiblarining diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Jumladan, 1914-yili Xayyom qalamiga mansub bir qancha ruboiy to'liq ilmiy sharh bilan nasriy tarjimada e'lon qilindi. Keyinchalik Abdurauf Fitrat, Ozod Sharafiddinov va Abdurahmon Sa'diylarning maqolalari hamda Fattoh Abdullayevning 14 ta ruboiyning o'zbekcha she'riy tarjimasi chop qilindi. Xayyom ijodini o'rganishga o'zbek olimlaridan Fitrat va J.Kamol singari bir qator ilm ahllari tadqiqotlar olib bordi hamda asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirdi.²³ Ammo shoir ruboiylarining o'zbek kitobxonlariga yaqinlashtirishda mashhur sharqshunos, professor Shoislom Shomammedovning xizmatlari beqiyosdir. Sh.Shomammedov dastlab "Umar Xayyom" risolasi (1963) yozdi, keyin es 300 dan ortiq ruboiylarni o'zbekchalashtirdi. Bu tarjima hozirgacha 3 marta chop qilindi.²⁴

Bundan tashqari juda ko'p so'z san'atkorlari Xayyom ruboiylarini o'z asarlariga kiritadilar. G'afur G'ulom "Ruboiylar" nomli maqolasida ruboiy janri va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritarkan: "Qatrada okean, uchqunda quyosh mazmunini berish ruboiyga xos xususiyatdir. Ruboiyning piri ustodi a'zami, butun yer yuzi adabiyotshunoslarining tan olishlaricha, olti-yetti asr mobaynida hali hech kimni o'z oldiga tushirmagan – Umar al-Xayyom Nishopuriydir", - deydi.²⁵

Avval tafakkurda tug'ilib, keyin qalb qo'riga yo'g'rilgan Umar Xayyom ruboiylari, bir so'z bilan aytganda, Olam va Odam haqida. Shoir dunyo evrilishlariga donishmandona bosiqlik, taassuf aralash loqaydlik bilan qaraydi: dunyoni o'zgartirishki qo'lingdan kelmas ekan, uni deb qayg'urish behuda. Uning uchun tug'ilish va o'lim, yaxshilik va yomonlik, halol va harom — bir xil:

²³ <http://kh-davron.uz/tag/umar-xayyom/> Ja'far Muhammad. Falak jomidan may sipqorgan Xayyom

²⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Umar_Xayyom

²⁵ Фулом Ф. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. Т.3. -Т.: "Фан",1984. 50-51 бб

hammasi o'z tabiiy qonuniyatiga asoslanadi. U insoniyatni ruhiy qaramlikka barham berishga chorlaydi:

Falakka hukm etgan tangriday bo'lsam,

Falakni qilardim o'rtadan barham.

Yangidan shunday bir falak tuzardim,

Yaxshilar tilakka yetardi ul dam.²⁶

Dunyoviy falsafa vakili sifatida Xayyom dunyoni aql elagida elaydi — Olam va Odam muammosini umumfalsafa mezon bilan o'lchaydi. Shu ma'noda, Xayyom ijodida biz odamdan ham, olamdan ham ustun turadigan — dunyoni qamrab oladigan shafqatsiz falsafaga duch kelamiz. Lekin farang faylasufi Laroshfuko: «Falsafa o'tmish va kelajak kulfatlari ustidan tantana qiladi, lekin bugunning qayg'usi falsafa ustidan tantana qiladi», — degani kabi Umar Xayyom ruboiylari ham buyuk mutafakkirning falsafiy mezonlariga bo'ysunmagan, ularni yorib chiqqan zalvorli fikrlar po'rtanasi, beorom qalbiga sig'magan otashin tuyg'ular silsilasidir.

Qadimgi qo'lyozmalarda yozilishicha, donishmandlar qiroli Umar Xayyom hijriy 517-yilda vafot etdi. Ilm-fanda u tengi yo'q mutafakkir edi. Uning shogirdlaridan biri samarqandlik Nizomiy quyidagi hikoyani bayon qilgan:

“Ustozim suhbatidan tez-tez bahramand bo'lib turardim. Bir kuni bog'dagi suhbatda u menga bu dunyoni tark etgandan so'ng uning qabri shunday bir joyda bo'ladiki, u yerda shimol shamoli yon-atrofni atirgullar hidi bilan burkashini xitob qildi. Men bularning bari shunchaki aytilgan so'zlar emasligiga ishonardim. Yillar o'tib, men Nishopurni qaytib tashrif buyurganimda, ustozimning so'nggi makonini ham ziyorat qildim. Rostanam uning qabri shunday bog'ning tashqarisida bo'lib, mevalari shohlarida osilib yotgan daraxtlar devordan mo'ralab turardi hamda o'z gullari bilan qabr ustini bezatib turardi. Qabr toshi gullar bilan butkul qoplangan edi.”

Buyuk olim, astronom, ruboiynavis Umar Xayyom 1122-yili Nishopurda vafot etadi.

²⁶ Умар Хайем. Рубоийлар.// Тузувчи Ш.Шомухаммедов. / . – Т.: «Шарк»,2003 Б-95

Xayyom ruboiylarida shoirning voqelikda ko'rganlari, ko'ngilda paydo bo'lgan tuyg'ulari, olam hodisalari haqida fikr va mulohazalari g'oyat siqiq va lo'nda shaklda o'z ifodasini topgan. Shoir ruboiylaridagi obrazlar va timsollarni asl ma'nosini anglamay turib, undagi g'oyani tushunib bo'lmaydi. Qadimgi shoirlar, asosan, timsollar bilan fikr bildirishgan. Bor narsani boricha aytib qo'yaverish sharqda san'at hisoblanmagan. She'riy obrazlar ko'pincha Qur'on va Muhammad payg'ambarning hadislariga tayanilgan holda yaratilgan. Shu ma'noda Xayyom ruboiylaridagi «may», «mayxo'r», «soqiy» obrazlari ham majoziy ma'noga ega. Sharq, xususan, tasavvuf she'riyatida may obrazining ilohiylik, o'zdan kechib, komil inson bo'lish bilan bog'liq ma'nosi bor. Shoir o'zini hayot mashaqqatlari oldida juda ojiz his etadi. G'am-qayg'uga botib, nola qiladi. May shu qayg'uni unutish vositasidir. Umar Xayyomning har bir misrasida o'ziga xos falsafa yotganini sezish qiyin emas:

Bu ko'p eski ravot, olam unga nom, -

Tun-kun tulporiga bor bunda orom.

Bu eski bazm yuzlab Jamshiddan qoldi,

Bu go'rda yotadi yuz-yuzlab Bahrom.²⁷

Xulosa qilib aytganda, zukko o'zbek ilm-adab ahli orasida Xayyomdan gap ketsa, albatta, birov shoir ruboiylaridan namuna o'qiydi. Bu esa, buyuk shodlik kuychisining xalqimiz orasida nechog'liq ardoqlanishining nishonasidir. Zero, bunday insonlarning orzu-armonlari, yoniq so'zi tafakkur mevalari yozgan asarlarida muhrlanib, avloddan-avlodga o'tadi va yangi qalblarni yoritib, hayot haqiqatlarini anglashga ko'maklashib turadi.

1.2. Fors adabiyotining ingliz adabiyotiga kirib borishi

G'arb madaniyatida Sharq, ayniqsa, fors adabiyotining ta'siri tarixan muhimdir. E.J.Braunning "iqtidorli va daho insonlarning aqliy faoliyatini baholash imkonsiz" degan ta'rifining isbotini Germaniyadan Yaponiyagacha tarqalgan dunyoning eng mashhur ilm-fan markazlarining ko'pchiligida tashkil qilingan Eron

²⁷ Умар Хайем. Рубоийлар.// Тўзувчи Ш.Шомухаммедов. / . – Т.: «Шарк»,2003 Б-28

adabiy merosini o'rganishga mo'ljallangan dasturlar taraqqiyotida ko'rish mumkin.²⁸

Edinburg universitetining fors adabiyoti bo'yicha taniqli professori L.P.Elvel-Sutton fors she'riyatini "jahonning eng boy adabiyoti namunasi" deb ataydi. Ohio universitetining fors fanlari professori Dik Davis ta'kidlashicha, g'arb tillariga tarjima qilish hajmi bo'yicha fors adabiyotining katta qismi ingliz tiliga qilingan.²⁹

Yevropa kitob ixlosmandlari tomondan Sharq adabiyoti, ayniqsa, fors adabiyoti javohirlariga bo'lgan qiziqish Antoni Gelland tomonidan "Les Mille et une Nuits" (1704-1717) asarining tarjimasi bilan kurtak yozdi. Gallandning ushbu badiiy tarjimasi Sharq qiyofasini fransuz kitobxonlari ko'z oldida gavdalantirdi. Fransuzchadan darhol anonim tarzda ingliz tiliga o'girildi. Marta P.Konant ta'kidlashicha, Sharq adabiyotidagi shoh asar "Ming bir kecha" ning turli tillarga tarjimasi Sharq adabiyoti va madaniyatining g'arbda qabul qilinishing boshlang'ich nuqtasi bo'ldi. A.Gallandning xomaki tarjimasi ko'pchilik mutarjimlarga ilhom bag'ishladi. Sir Jon Chardinning "Travelsinto Persia and the East Indies" (1686) asari ingliz va fransuz tillarida bir vaqtda nashr etildi. Bu sarguzasht asar Shayx Sa'diyning "Bo'ston" ida keltirilgan okeandan paydo bo'lgan yomg'ir tomchisi haqidagi mashhur fors masalini ham o'z ichiga oladi. Shundan so'ng "Fors hikoyalari"(1710) va "Geni sarguzashtlari"(1764) ning Reverend Jeyms Ridli tomonidan; "Fors chorvadorlari hikoyalari" ning Uilyam Kollins tomonidan 1742-yildagi tarjimasi; "Rasselas" (1759) ning Samuel Jonson va "Vatek" (1768) ning Uilyam Bekfordlar tomonidan qilingan tarjimalarining yaratilishiga sababchi bo'ldi. Bu tarjima hikoyalar orqali Yevropa kitobxonlarida uzoq Sharq o'lkalaridagi an'ana va marosimlar haqida ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ldi.³⁰

Sharqning zavq-shavqi, rang-barangdorligi va jozibadorligi ifodasi - "Ming bir kecha" tarjimasi orqali Angliya adabiyotida Sharq hikoyachiligi tarixida yangi

²⁸ https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture

²⁹ The same source

³⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture

bo`lim ochildi.<sup>31</sup> “Ming bir kecha” hikoyalarining inglizcha tarjimasi 1840-yilda Edvard Leyn tomonidan va 1885-88-yillarda Ser Richard Berton tomonidan qilindi. Asarning 1793-yilgacha 18 marta qayta-qayta nashr qilinishi XVIII asrda uning qay darajada xalq orasida tanilganini ko`rsatadi. Bu esa ko`ngilochar, g`ayrioddiy hamda sirli voqealarga boy bo`lgan shu kabi asarlarning nashriyotiga ehtiyoj oshganining yorqin ifodasidir. Samuel Jonsonning “Rassela” asarining 1759-yildagi mohirona tarjimasi odatda adabiyot tanqidchilari tomonidan Jonsonning “Inson istaklarining behudaligi” (“The Vanity of Human Wishes”) she`riga qiyoslanadi. Abissiniya shahzodasi Rasselas katta vodiya tich, sokin hayot kechirishdan zerikib, singlisi Nekaya va qari faylasuf Imlak bilan birgalikda Misrga qochib ketadi. Rasselas fikricha, baxtni hamma yerdan topish mumkin, ammo u faqat baxtsizlikka duch keladi. Abissiniyaga qaytib ketadi. U o`z sarguzashtlari davomida ko`p narsani o`rganadi. Jonson fikricha, manguylik va kelajakka ishonch dunyodagi baxt yoki baxtsizlikdan ko`ra muhimroqdir. Bu mavzu esa sharqona dunyoqarash ifodasidir.³²

Avesto va antik fors adabiyotini g`arbda o`rganish XVIII asrda Hindistondan topilgan Zardushtiylik matnlarining dunyo olimlari tomonidan tadqiq qilinishi bilan boshlangan. 1759-yilda Vendidat qismining fransuz olimi A.Dyupperon tomonidan qilingan tarjimalarni ingliz olimi Uilyam Jons va Silvester de Sasi Pahlaviy tilidagi matnlarni o`rganish bilan davom ettirdilar.

Abdulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumi, Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy va Shayx Sa`diy, Abdurahmon Jomiyning adabiy-ilmiy merosining nafaqat Markaziy Osiyo va Eron, balki Turkiya va Hindistonda ham sevib o`qilishi va ushbu ikki mamlakat xalqlarining unga bo`lgan yuksak hurmat-ehtiromi yevropaliklar nazaridan ham chetda qolmadi.

U.Jons “Fors tili grammatikasi” (1771) muqaddimasida yozishicha, fors tili “nihoyatda boy, xushohang va jozibador”. U forsiy qo`lyozmalardagi xazinalarni

³¹ Konant M.P.. “The Oriental Tales in England in the eighteenth century”, Columbia UP, 1908

³² Behtash E.Zare “FitzGerald’s Rubáiyát: A Victorian Invention” - A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy of the Australian National University August 1994, p:89

Yevropa e'tiboriga tortiq qilishni o'z burchi deb hisoblaydi. Shu maqsadda fors tilini o'rganish uchun amaliy qo'llanma yaratishga harakat qilib, forsigo'y so'z san'atkorlarining turfa she'riy namunalarini o'z ichiga olgan fors grammatikasi bo'yicha benazir kitob yozdi. Shuningdek, u Shayx Sa'diyning "Guliston" idan va Hofizning g'azallaridan ham foydalanadi. Shu tariqa, Jons kitobxonlarga nafaqat fors grammatikasi, balki fors adabiyotini ham tanishtirdi.³³

J.P.Sing yozishicha, Yevropada ilk bor Jons Sharq yozuvchilarini antik Yunon va Rim yozuvchilari bilan bir o'ringa qo'ydi. U shuni nazarda tutdiki, arab va fors shoirlari yunonlarning Pindridan ulug'vorroq, Anakrondan yoqimliroq, Saffo ma'naviy xazinasidan sayqalroq. U.Jons neoklassisist sifatida, Firdavsiyni forslarning Gomeri, Hofiz Sheroziyni forslarning Anakroniga o'xshatadi. Demak, fors kitobxonlari o'z an'analari bilan mumtoz va qadimiy an'analalar bilan bellasha olganlar. Jons o'z kitobxonlarini fors ma'naviy xazinalarini tarjima holida o'qishni emas, balki asardagi asliyatni his qilishga undaydi. Jonsning asarlari kelgusidagi sharqshunoslar uchun yo'l ochib berdi va ko'pchilik yosh olimlarni ruhlantira oldi.

Uilyam Bekford (1759-1844) "Xalifa Vatek tarixi"(1786) ni yozdi. Bu asar o'z zamonasining mashhur ekzotik fantastik asariga aylandi. Bu asar o'sha davr tanqidchilari tomonidan asar mexanizmning yangiligi va sharqona urf-odatlar ifodasining batafsilligi bilan maqtovga sazovor bo'lgan. O'rta Sharq xalq og'zaki ijodining Angliyaga kirib kelishida ma'lum sayyoh va olimlarning tomonidan qayd qilingan qo'lyozmalar ham salmoqli hissa qo'shgan.

Shuningdek, Abdulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy va Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy kabi forsigo'y so'z san'atkorlarining she'riyati tarjimalari Angliya kitobxonlari ko'nglidan yo'l topa oldi. Bunda V.S.Landor, Sauzi, J.G.Bayron va T.Murning mohirona tarjimalarini ta'kidlash lozim. Sa'diyning "Guliston"i ingliz tiliga ilk to'g'ridan-to'g'ri forschadan o'girilgan badiiy asardir. Stefen Sullifan qalamiga mansub "Guliston tarjimasi" 1774-yilda ingliz tarjimashunosligi tarixida yangi sahifa ochib berdi. Ham nazm, ham qofiyali nasr

³³ Jones W. "The works of Sir William Jones, with the life of the Author" 13 vols. (London: J. Stokdeyl & J.Uolker, 1870) pp:79-80

(sa'j) da yozilgan "Guliston" asari "The Rose Garden" nomi bilan Jeyms Ross tomonidan 1823-yilda qayta tarjima qilindi. Keyinchalik "Bo'ston" asari ham "The Scented Garden" nomi bilan ingliz tiliga tarjima qilindi.³⁴

Romantisizmning ravnaq topishi va g'ayrioddiy mavzularga taaluqli qiziqish orqali Sharq adabiyotini o'rganishda yangi davr boshlandi. Sharq mavzusi romantistlar uchun ilhom manbayiga aylandi. V.Landor va Sauzi kabi yozuvchilar kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otgan Sharq mavzusidagi hikoyalar yozadilar. Ular "inglizlarning konservativlik xususiyatlari fors klassikasining ulug'vor namunalarini kitobxonlar orasida yoyishida ko'mak berishi" ni namoyon qildilar. J.Bayron va T.Mur Sharq falsafasiga qiziqish bildirishdi. Bayron fors adabiyotining obrazlari va mavzularining ingliz xalqi orasiga kirib borishida katta hissa qo'shdi. Sharq adabiyotining "bulutsiz osmoni" Bayronning shaxsiy muammolaridan "qochish"ning vositasiga aylandi. Bayron qo'lyozmalarida quyidagi satrlar uchraydi:

"Turmush qiyinchiliklari rosa charchatganida men Sharq tomon "odimlayman". Bilamanki, u yerda bulutsiz osmondan zavq olish va murakkabliklardan tanaffus qilish mumkin".³⁵

Bayron Sharq adabiyoti to'g'risidagi ilk taasurotlarini V.Jonsning "Grammatika" va Bekfordning "Xalifa Vatek" asarlaridan olgan. U o'zining "Turk hikoyalari" asarini yozishdan oldin ham Jonsning qo'lyozmalari orqali taniqli fors shoirlarining ko'pchiligini yaxshi bilardi. 1807-yildagi "Jurnal" da Bayron Hofiz, Sa'diy va Firdavsiy nomlarini eslatib o'tadi:

"What would be the sentiments of the Persian Anacreon, Hafiz, could he rise from his splendid sepulchre at Sheeraz, (where he reposes with Ferdousi and Sadi, The Oriental Homer and Catullus), and behold his name assumed by one Stott of Dromore the most impudent and execrable of literary pouches for daily prints?"³⁶

³⁴ Leask N, "British Romantic writers and the East" (Cambridge:Cambridge UP,1992) p:20

³⁵ Javadi H. "Persian literary influence on English literature (Calcutta: Iran society, 1983) p:95

³⁶ McGann Jeromi J., ed "Lord Byron.The Completed Poetical works" (Oxford,1981)p:2:63

Bu satrlarda “Shohnoma” asari muallifi Firdavsiyni fors “Gomer” i va Sa’diyni “Katull”³⁷ deb ataganini ko`rishimiz mumkin.

Bayron she’rlarida mahalliy mentalitetni tasvirlovchi atamalarning to`g`ri qo`llanilishi orqali sharqona koloritning yuqoriligiga erishgan. Bayron she’riyatidagi sharqonalikning farqi tarjimada atoqli otlarning saqlab qolinishidan tashqari, fors va islom madaniyatiga tegishli umumiy obrazlarni keng qo`llanishidir. Masalan: “Chayld Harold ziyorati” dagi mosque (machit), muezzin (azon aytuvchi), minaret (minora) kabi Sharq muhitini ifodalovchi so`zlar:

Hark! From the Mosque the nightly solemn sound,

The Muezzin’s call doth shake the minaret,

“There is no god but God! – to prayer – lo! God is great!”.³⁸

Bayron kitobxonlarni muazinning dav’atlarini tinglashga va o`z vaqtida ibodat qilishga chorlaydi.

Lord Bayron mashhur “Chayld Harold ziyorati” epik dostoni (1817-18) da Hofiz Sheroziyni Rimning muhabbat va may kuychisi, mashhur shoir Anakronga qiyoslaydi:

Love conquers Age – so Hafiz hath averr’d,

So things the Teian, and he sings in sooth.

(Kanto II, 63)³⁹

Sharq mavzularidagi hikoya yozuvchilari orasida, M.Arnold uslubi g`ayrioddiydir. U fors tilini bilmas edi, biroq undagi sharqona mavzularni ichki sezgi orqali tushunib olish qobiliyati yuqori edi. Buni Firdavsiyning “Rustam va Suhrob” tarjimasi o`zida mujassamlashtirgan. Bu dostonni ilk bor 1814-yilda Jeyms Alkinson “Suhrob va Rustam” nomi bilan ingliz tiliga erkin tarjimasini yaratdi. German sharqshunosi Jolis Mohl Firdavsiyning “Shohnoma” epik dostonini 1838-1878-yillarda Parijda ‘Les Rivers des Rois’ (so`zma-so`z tarjimasi “Shohlar daryosi”) nomi bilan tarjima qildi. Saint-Byuv J.Mohlning tarjimalarining tahlil qilganda, “Suhrob va Rustam” dostonining tafsilotini keltiradi. Mohlning

³⁷ Gay Valeriy Katull – Qadimgi Rimning shoiri (m.a 84 – 54)

³⁸ McGann Jeromi J., ed “Lord Byron.The Completed Poetical works” (Oxford,1981)p:2:63

³⁹ The same source p:2:64

tarjimalari va Saint-Byuvning tahlillari Arnoldni qayta fors epizodi ustida ishlashga undadi. Arnold Sir Jon Malkolning “Fors adabiyoti tarixi” ni ham o`qib chiqib, undagi “Suhrob va Rustam” hikoyasi bilan ham tanishib chiqadi. U Ser Aleksandr Bernesning “Travels into Bokhóra” (“Buxoroga sayohat”) asaridan foydalanib o`z she`rlariga Sharqona muhit va rang bera oldi. Mesyu Arnold tarjimalarini asliga yaqinlashtirgan narsa o`z asarida Saint Byuvning tahlillaridan o`rinli foydalana olganidir.⁴⁰ Hikoya mazmuni quyidagicha:

Bu fojiali hikoya otaning o`z o`g`lini o`ldirishi haqida. Mard, jasur Suhrob o`z nasl-nasabini aniqlash uchun yo`lga otlanadi. U aslida fors qahramoni Rustamning u urush vaqtida bo`lganida dunyoga kelgan o`g`lidir. Rustamning xotini Taxmina o`g`lining ham hayoti urushlarda o`tmasligi uchun, eriga farzand qiz ekanligini aytib, uni aldaydi. Yillar o`tib, u o`g`li Suhrobgaga otasining muhrini ko`rsatib, uni izlab topishini so`raydi. Suhrob safar chog`ida eng qo`rqmas, buyuk qahramon bilan olishishiga to`g`ri keladi. Bu forsning qo`rqmas jangchisi Rustam edi. So`nggi jangda Rustam o`z nomini oshkor qiladi va Suhrob o`z otasini taniydi. Ammo Rustam allaqachon, o`g`lini jarohatlab bo`ladi. Keyin o`g`lining qo`lidagi muhrga ko`zi tushadi. O`g`li o`z qo`lida jon berayotganini ko`rgan otaning iztiroblari bilan doston tugaydi.⁴¹

Javadining yozishicha, asl nusxadagi va Arnold yozgan tarjimadagi farq shundaki, Firdavsiy epizodidagi falokat insonning makkorona harakatlarining natijasidir, biroq Arnoldning she`rida esa bu nuqtayi nazar kuzatilmaydi va fatalizm (taqdirga ishonish) – “Suhrob va Rustam” dostonining bosh mavzusiga aylanadi.⁴²

Dostonning yozilish tili haqida to`xtalganda, asl nusxada kitobxonlar satrlarni osonroq eslab qolishi uchun oddiy so`zlashuv uslubi va umumiy o`xshatishlardan foydalanilgan. Arnold esa bu uslubga bezak berib, Gomer uslubiga yaqin nazmdagi beqiyos o`xshatishlardan foydalandi. Shu tariqa

⁴⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture

⁴¹ Behtash E.Zare “FitzGerald’s Rubáiyát: A Victorian Invention” - A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy of the Australian National University August 1994, pp:82-100

⁴² Javadi H. “Persian literary influence on English literature (Calcutta: Iran society, 1983) p:120

“Shohnoma” dagi uslub Viktoria davri kitobxonlari uchun maqbul boʻlgan grek nazmi anʼanalari bilan oʻrin almashdi.

XIX asrning boshiga kelib E.FitzJerald va F.Rozensvayg kabi yirik sharqshunos va adiblar yana bir ulugʻ fors shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiyning adabiy-ilmiy merosini oʻrganish va targʻib etish masalasida katta hissa qoʻshdilar. Jomiy oʻzining ulkan maʼnaviy xazinasi – yetti dostonidan iborat “Haft avrang” (The Seven Thrones) masnaviylar majmuasi bilan fors sheʼriyatida ajralib turadi. Ingliz tarjimoni Edvard FitzJerald va Jomiyning shu masnaviysidagi uch ishqiyl doston: “Yusuf va Zulayho”, Layli va Majnun”, “Salomon va Ibsol” kabi dostonlarni, nemis sharqshunosi F.Rozensvayg esa “Bahoriston” nomli didaktik dostoni va mutafakkirning tasavvuf tarixiga oid eng yirik asari – “Nafohat ul-uns” dan baʼzi qismlarni tarjima qilganlar. Undan soʻng mashhur ingliz sharqshunosi V.N.Lis taxminan 1855-yilda Jomiyning “Nafohat ul-uns” asarini diqqat bilan oʻrganib chiqdi va moʻtabar manbalar asosida ulugʻ shoirning tarjima holini tiklash va mazkur asarning Kalkutta nashri muqaddimasida berishga muvaffaq boʻldi. “Nafohat ul-uns” ning ushbu nashri haligacha oʻz ilmiy qiymatini yoʻqotmagan.⁴³

Jomiy hayoti, adabiy-badiiy va falsafiy-irfoniy merosi Yevropa mamlakatlarining sharqshunos olimlari va adiblarining diqqat-eʼtiborini keyingi davrlarda ham doimo oʻziga jalb etib kelgan. Ingliz olimi F.Hedlan Devis birinchilardan boʻlib Jomiy hayoti va ijodi haqida maʼlumot berish bilan birga uning tasavvuf taʼlimotidagi oʻrnini aniqlagan. Bu borada ayniqsa, yevropalik yirik sharqshunos va islomshunos olimlar – G.Masse, A.Arberri, E.Braun, E.Bertels, A.Shimmel, U.Chittik va boshqalar qimmatli tadqiqotlar yaratganlar.⁴⁴

Amerikalik fors sheʼriyatining yana bir ixlosmandi Ralf Valdo Emerson “Fors sheʼriyati” (Letters and Social aims, 1876), “Fors shoiri Hofizdan” va “Gʻazal” esselarida forsiy sheʼriyatga boʻlgan ishtiyoqini namoyon qildi. Bu esselar fors nazmining betakror jihatlarini kitobxonlarga yangi bir janr sifatida ochib berdi.

⁴³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Jami>

⁴⁴ <http://referat.arxiv.uz/Sharq> va Gʻarb adabiy aloqalari

Edvard B.Kovel ham fors adabiyoti namunalarini Viktoriya davri adabiyotining oqimiga olib kirishda muhim rol o'ynagan. Uning taniqli sharqshunoslar Edvard FitzJerald va Alfred Tennison bilan do'stligini ham alohida ta'kidlash kerak. Uning 1842-45-yillar faoliyat ko'rsatgan "Asiatic Journal" jurnalida chop etilgan Hofiz Sheroziy qasidalarining tarjimasi betakrorligi bilan ajralib turadi.⁴⁵

G'arbda Birinchi Jahon urushidan so'ng so'fiylik ta'limoti g'oyalari va adabiyotiga bo'lgan qiziqish paydo bo'ldi. Bu borada ayniqsa, Genri Uilberfors-Klarke va Ser Richard Berton kabi so'fiyshunoslar hamda Mauri Nikol va Kennet Uolker kabi olimlar va Gurdijif va Aupenski kabi faylasuflar qimmatli tadqiqotlar olib bordi. F.Attor, A.Jomiy, H.Sheroziy va J.Rumiy kabi bir guruh tasavvuf ta'limoti vakillarining adabiy merosi so'fiylik ta'limotining durdonalari sifatida tez orada g'arbda tanildi. XX asr boshlaridan forsiy she'riyatning buyuk namoyondasi Mavlono Jaloliddin Rumiy g'azallari dunyo bo'ylab tarqaldi. Rumiyshunoslik bilan birinchilardan bo'lib jiddiy shug'ullangan ingliz olimlaridan Rinald Nikolson (1868-1945) dir. Nikolson shoir devonlaridan tanlab olgan g'azallarni falsafiy ma'nosi va xususiyatiga qarab tasnifladi hamda 1898 - yilda "Jonning joni" nomli to'plam shaklida nashrdan chiqardi. Mazkur majmua 1977-yilda qayta chop etildi. U 1924 - yilda "Osiyo saltanati jamiyati" jurnalida Rumiyning "Fihi mo fihi" ("Ichindagi ichingdadir") asarini tanishtirib, uning ba'zi qismlarini tarjima qildi. Nikolson amalga oshirgan ishlarning eng muhimi 1925-1940 yillarda "Masnaviy" tarjimasi va sharhidir. Nikolson boshlab bergan ingliz rumiyshunoslik maktabini uning harakatchan va faol shogirdlaridan Artur Jon Arberri (1905-1959) davom ettirdi. Arberri irfoniyy g'azallardan iborat ikki jildlik kitob chop ettirdi. Ushbu kitobda u Rumiyning 400 ta g'azalini ingliz adabiy tiliga, muxlislar uchun tushunarli tarzda "Rumiyning mistik poemalari" nomi bilan tarjima qilishga erishdi. Darhaqiqat, zikr qilingan bu ikki kitob Yevropa xalqlarining Jaloliddin Rumiy va uning irfoniyy merosiga bo'lgan qiziqishlarini

⁴⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture

yanada orttirdi. Mavlono Rumiyning A.J.Arberri, Uilyam Chittik, Ravan A.G.Farhadi, Daniel Ladinski, Franklin Levis, Majid M.Naini, Reynold A.Nikolson va Jeyms Redhaus tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjima she'rlari ko'pgina mutafakkir va so'z ustalarining e'tiborini tortdi.⁴⁶

Ingliz adabiyotidan betakror ruboiylari bilan o'rin olgan fors she'riyatining namoyondalaridan biri Umar Xayyomdir. Dunyoda Xayyom ruboiylarini o'z ona tilida o'qimagan biron-bir yuksak madaniyatli millat bo'lmasa kerak. Bunda barcha olimlar bir ovozdan Yevropada Xayyomni mashhur qilgan ingliz adibi va tarjimoni Edvard FitzJeraldning xizmatlarini alohida e'tirof qilishadi. Jumladan, FitzJeralddan so'ng Xayyom ruboiylarini katta qiziqish bilan tarjima qilgan yana bir ingliz olimi Artur Arberri bu haqida shunday deydi: "Umar Xayyomning baynalmilal shuhrati adabiyot tarixida g'oyat nodir voqeadir. Chunki Edvard FitzJerald uning asarlarini tarjima qilmaganda va bu tarjimalar kitobxonlar orasida shuhrat qozonmaganda, uni Eronda ma'lum doira vakillari, undan tashqarida esa bir guruh mutaxassislargina tanigan bo'lardi, xolos".⁴⁷ Haqiqatdan ham, FitzJerald tarjimalaridan keyin Xayyom ruboiylari ketma-ket german, fransuz, rus, italyan, ispan, chex, golland, portugal va boshqa tillarga tarjima qilinib, butun Yevropa bo'ylab tarqaldi, u haqda maqolalar, tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Ammo mana, o'sha davrdan 154 yil o'tdiki, Xayyom ruboiylarining shuhrat yulduzi haligacha so'ngani yoki yana boshqa ko'plab tillarga qayta-qayta tarjima qilish jarayoni to'xtagani yo'q.

Xulosa qilib aytganda, shu va shu kabi fors tilida yozilgan asarlarnig dunyo adabiyotiga kirib borishi va fors adabiyotining ingliz adabiyotiga ta'siri haqida so'z yuritganda, ularning asrlar osha til, madaniyat va etnik kelib chiqishi nuqtayi nazaridan chegara bilmay kelayotganini ta'kidlash lozim.

⁴⁶ <http://n.ziyouz.com/maqolalar/ja-far-xolmo-minov-jaloliddin-rumiy-va-g-arb-adabiyoti>

⁴⁷ Arberri Artur J "Omar Khayyam: A new version based upon recent discoveries", London, 1956, p.13

I bob bo'yicha xulosa.

X-XIII asrlarga kelib, turkiy adabiyot bilan doimo yonma-yon, hamnafas bo'lgan, unga samarali ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan fors-tojik adabiyoti nihoyatda rivojlandi. Bu davrda yaratilgan klassik asarlar g'arb va sharq adabiyoti vakillari uchun asrlar davomida adabiy ta'sir manbai bo'lib keldi. Bunday asarlar sirasiga Firdavsiyning "Shohnoma", Sa'diyning "Guliston", Rumiyning "Masnaviy", Hofiz Sheroziyning betakror g'azallari hamda Umar Xayyomning shuhrati olamga ketga ruboiylarini kiratamiz.

Ingliz tarjimonlari Edvard FitzJerald, A.J. Arberri, Uilyam Chittik va A. Nikolsonlar fors tilida yozilgan ushbu asarlarni dunyo adabiyotiga kirib borishida o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan.

Umar Xayyom hayoti va falsafiy merosi bo'lmish ruboiylari Yevropa mamlakatlarining sharqshunos olimlari va adiblarining diqqat-e'tiborini doimo o'ziga jalb etib kelgan. Olam va Odam, tug'ilish va o'lim, yaxshilik va yomonlik, halol va harom haqidagi donishmandona qarashlarga boy Xayyom ruboiylarining bir necha asrlar davomida yuzdan ortiq tilga tarjima qilinganligi ham uning jahon klassik adabiyotida naqadar ulkan o'rin egallab turganini ko'rsatadi.

II BOB.UMAR XAYYOM SHE'RIYATINING INGLIZ TILIGA TARJIMALARI – JAHON ADABIYOTINING BEBAHO XAZINASI

2.1. Xayyom “Ruboiyot”i ingliz adabiyotida

Malumki, jahon adabiyotida Sharq she'riyatiga qiziqish asrlar davomida so'nmagan. Bu qiziqish XX asrda yanada kuchaydi. Shu sabab, Umar Xayyom ruboiylari eron-fors adabiyotidan tashqari turli tillarga qilingan tarjimalari bilan jahon adabiyotida ham sezilarli o'ringa ega. Sharq klassik nazmi durdonalarining ko'pchiligi dastlab rus tilidagi tarjimasi orqali g'arb adabiyoti xazinasidan joy olgan bo'lsa, Umar Xayyom ruboiylari jahon adabiyotida o'z o'chmas o'rnini ingliz mutarjimlarining mohirona tarjimalari orqali topa oldi. Tarjimalar orasida eng ahamiyatlisi – Edvard FitzJeraldning Xayyom ruboiylarning asl fors manbalaridan ingliz tiliga qilgan tarjimalaridir. Ko'p tildan xabardor olim Edvard Bayles Kovelning maslahati bilan, FitzJerald fors tilini o'rgana boshladi. 1856-yilda esa Jomiy qalamiga mansub “Solomon va Ibsol” allegoriyasi tarjimasini omma e'tiboriga taqdim qildi. Shu yil yozda Kovel Kalkuttaga jo'nab ketar chog'ida, Oksforddagi Bodleyn kutubxonasida Umar Xayyomning “Ruboiyot” i qo'lyozmasiga duch keladi. O'sha vaqtda Xayyom o'z Vatanida shoir sifatida emas, balki buyuk matematik, astronom olim sifatida tanilgan edi. Kovel qo'lyozmaning ko'chirma nusxasini FitzJeraldga ko'rsatadi. Natijada 1859 - yilda FitzJeraldning ruboiylar tarjimasi anonim tarzda nashrdan chiqdi. Kelasi yilgacha Dante Gabriel Rosetti bu tarjimaga duch keldi va u bir vaqtlar unutilgan Xayyomni E.FitzJerald qayta o'z ruboiylarida jonlantirganining guvohi bo'ldi. Uning “The Rubaiyat of Omar Khayyam”(“Umar Xayyom ruboiyoti”) ko'p marta nashr qilindi.⁴⁸ Keyinchalik shu tarjimaga tayanib qilingan boshqa tillardagi ruboiy tarjimalar orqali turli millat kitobxonlari ham X-XI asr Sharq gavharidan bahramand bo'la oldilar. Birgina ingliz tiliga Xayyom ruboiylari shunchalik ko'p marta tarjima qilinib, ruboiylar sharhlanganki, ularning ketma-ketlik bo'yicha

⁴⁸ Mashhady H., Noura M. “FitzGerlad’s approach to translation” a research article in
“ International Journal of Scientific & Engineering Research” Volume 3, Issue 4, April-2012 p:4

tarjima xronikasini ham keltirish mumkin. Biroq bu tarjimalarning juda kami asl forsiychadan qilingan, ko`pchiligida oldingi ingliz tilidagi tarjimalarga tayanilgan.

Ingliz tilidagi tarjimalar xronikasi quyidagicha:

1.Edvard FitzJerald tarjimalari Xayyomning turli tillarga qilingan tarjima ruboiylari orasida eng taniqlisi hisoblanadi. E.FitzJeraldning inglizcha tarjimasining o'zigina to 1925 yilgacha 139 marta chop etilgan.

1-nashr – 1859-yil [75 ruboiy]

2-nashr – 1868-yil [110 ruboiy]

3-nashr – 1872-yil [101 ruboiy]

4-nashr – 1879-yil [101 ruboiy]

5-nashr – 1889-yil [101 ruboiy]⁴⁹

FitzJerald tarjimalarining birinchi va ikkinchi nashrlari chop etilganda forsiychasi asl nusxada keltirilmagan 3 ta ruboiyni uchratish mumkin, ehtimol bu FitzJeraldning o`zining to`rtliklaridir, bu to`rtliklar keyingi nashrlarda tushirib qoldirilgan. Edvard FitzJerald esa she`rga xos uslubiy va shakliy xususiyatlarni saqlagan holda o`z asliga o`xshagan she`r yarata oldi. Tarjimadagi mahorat she`riy ovozni qayta tiklay olishni bildiradi. Shoir sifatidagi mahoratini hisobga olgn holda, kitobxonlar u tarjima qilgan ijod mahsulini Fitz-Omar ruboiyari deb nomlaganlar. Biroq uning tarjimalaridagi kamchilik shu ediki, fors adabiyotida g`azallar va ruboiylarni alifbo tartibida joylashtirilsa, FitzJerald Xayoom ruboiylarini quyidagicha ketma-ketlikda keltiradi. Ya`ni, Xayyom:

- tongda bog`ga kiradi,
- hali sergak va hushyorligida chuqur xayollarga beriladi,
- kun davomida mayxo`rlik qiladi,
- xursand, xushvaqt bo`ladi,
- bog`ning ulug`vorligini sharaflash uchun she`r yozadi,
- tun yaqinlashganda, inson umri qisqaligiga achinib, g`amga botadi.

FitzJerald tarjimalarida kun ketma-ketligi tasviri vaqt o`tishini ifodalovchi metafora vazifasini o`taydi.⁵⁰

⁴⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Rubaiyat_of_Omar_Khayyam

Bundan tashqari, tarjimonning ko'pgina to'rtliklari qayta boshqa so'zlar bilan hikoya qilingandek, ba'zilar esa Xayyomning forsiy ruboiylari orasida kuzatilmaydi. Uning asl nusxadagini lo'nda qilib qisqartirish va noadabiy erkin tarjima uslubiga moyilligi tom ma'noda Xayyom ruboiyotining qayta tiklanishiga yordam berdi. FitzJerald g'arb adabiyotshunoslarining e'tiborini fors adabiyoti xazinalariga jalb qila oldi.

2. Edvard Vinfild E.FitzJerald tarjimalaridan ta'sirlanib, o'z tarjimalarini chop ettirdi. Uning ruboiylari ikki bor nashrdan chiqib, 1852-yilda 253 ta ruboiy, 1853-yilda 500 ta ruboiy tarjimasini o'z ichiga oladi. E.Vinfild Xayyom ruboiylarini mavzusi bo'yicha 6 guruhga tasniflaydi:

❖ “Shikoyatlar” tarkibiga kiruvchi ruboiylar shoirning shaxsiy hayoti bilan bog'liqdir. Hayotdan bahramand bo'lib yashashni ochiq-oydin targ'ib qiluvchi ruboiylari tufayli shoirni “sha'riat dushmani” deb atashadi. Turli din vakillari Xayyomga bo'htonlar qilib, o'z yo'llariga g'ov bo'lgan kishilarni birin-ketin o'ldirishni boshlagan bir paytda, Xayyom Nishopurga ko'chib kelishga majbur bo'ladi. Ishongan do'sti va homiysi Nizomulmulk vafotidan so'ng qiyinchilikda o'tgan umri davomida yozilgan Xayyom ruboiylarini Edvard Vinfild tarjima qilgandan so'ng “Shikoyati ro'zg'or” turkumiga kiritadi.

❖ “Hajvlar” uslubida yozilgan to'rtliklari shoirning o'z raqiblariga kinoyali tarzda bayon qilgan murojaatlaridir. Achchiq kulgi bilan yo'g'rilgan bu ruboiylarda u fikrlarini o'ziga xos estetik shaklda – go'zallik va xunuklik, fojiaaviylik va kulgililik mezoniy tushunchalari orqali taqdim etgan.

❖ “Firoqiya” mazunidagi ruboiylari boshqa mumtoz fors va o'zbek nazm namoyondalari ijodiga o'xshab ketadi. Mumtoz adabiyotda “ishq” tushunchasi asosan ilohiy ishq tarzida namoyon bo'ladi. Xayyomning ham bu mazmundagi she'rlarida dunyoviy ishq lazzatlaridan so'z aytish barobarida, ko'ngil ma'rifati, insoniy komillik to'grisida ham kuylangan. Edvard Vinfildning fikricha, diniy-didaktik va falsafiy-mistik adabiyot namoyondasi hisoblangan Xayyom

⁵⁰ Sabzi A. “Edvard FitzGerald's Translation of Rubaiyat of Omar Khayyam”, (MA Student in Translation Studies).Bahonar University of Kerman, 2015.p:10

ruboiylaridagi **“tulip cheeks”** , **“cypress forms”** kabi tashbehlar zamirida ham dunyoviy, ham ilohiy ma’no yotadi.⁵¹

❖ **“Bahoriya”** tarkibiga kiruvchi ruboiylarda tabiat tasvri, gullar madhi, bulbullar xonishi, yam-yashil maysazor hayrat, surur, lirik kayfiyat bilan taqdim etilganini kuzatish mumkin. Geograf Ser V.Ousley guvohlik berishicha:

“Nishopur – o`zining go`zal bog` va keng dalalari bilan mashhur bo`lib, yer ostida joylashgan kanal tomondan suv bilan ta`minlanadi. Shahar yaqinida **“Saka”** deb nomlangan ariq oqib o`tgan. Xurosonda Nishopurdan kattaroq shahar yo`q, bundan tashqari uning sof va mo`tadil havosiga teng keladigan joy ham topilmasa kerak.”⁵²

Tabiat tasvirlangan to`rtliklar tarjimasida E.Vinfild tomonidan yaratilgan tasvir nafaqat shoir his-tuyg`ulari ifodasi, balki kompozitsiyaning asosi darajasiga ko`tarilgan. Chizilayotgan tabiat tasviri ongda namoyon bo`lsada, u go`yoki ko`zlar harakati asosida umumlashayotganday taassurot qoldiradi.

❖ **“Kufriya”** mazmunidagi ruboiylarga Edvard Vinfild Xayyomda skeptitsizmga⁵³, gohida agnostitsizmga⁵⁴ moyillik tug`ilgan paytda dunyoga kelgan ruboiylarni misol qiladi. Bu ruboiylar epikureistik<sup>55</sup> mazmunni o`zida ifodalagan. Ma`lumki, shoir ruboiylarning butun hayoti davomida yozgan. E.Vinfild fikricha, bu mazmundagi she`rlar Xayyomning yoshlik davrida bitilgan.

❖ **“Munojot”lar** – bu Xayyom Ollohga atab, unga o`z sodiqligini namoyon qiluvchi murojaatlari. Insonning gunohi ko`p, goh u shariat farzlarini o`z vaqtida bajara olmasligi mumkin. Biroq uning niyati doim pok bo`lsa, biror marta munofiqlik qilmasdan, Yaratganning yakkaligiga shak keltirmasdan, unga suyanib, uning Rasulini tan olib yashasa, karami keng Alloh bunday bandani kechiradi – u ilohiy karamdan umidvor bo`lishga haqli. E.Vinfild ham Xayyomning shu

⁵¹ Whinfield E. “The Quatrains of Omar Khayyam”, London – 1883. p:23-24:

⁵² The same source p:26

⁵³ **Skeptitsizm** - yun. skeptikos — ko`rib chiqishga, o`ylab ko`rishga moyil. Ma`nosi (fls): ob`yektiv haqiqatni to`g`ri va aniq bilish mumkinligiga ishonchsizlik bilan qarovchi idealistik falsafiy oqim.

⁵⁴ **Agnostitsizm** - ob`yektiv dunyoni va uning qonuniyatlarini bilish mumkinligini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta`limot.

⁵⁵ **Epikureizm** - hayotning manosi aysh-ishrat, rohat-farog`at deb biluvchi dunyoqarash.

mazmundagi ruboiylarini ingliz tiliga mohirona tarjima qilib, asl ma'noni saqlab qolgan:

Ten Powers, and nine spheres, eight heavens made He,
And planets seven, of six sides, as we see,
Five senses, and four elements, three souls,
Two worlds, but only one, O man, like thee.⁵⁶

3. 1877-yilda Piter Uvolley tomonidan “Xayyom ruboiylarining qofiyali tarjimalari” nomli kitob ommaga e’lon qildi.

4. Jastin Hantli Makkarti (1859-1936) 466 ruboiydan iborat nasriy tarjimalarini 1889-yilda chop ettirdi. Uning tarjimalarida nodir tarixiy asarning aslidek bir xil shaklda yaratilganini sezish mumkin. Makkarti ruboiylari FitzJerald va Vinfield ruboiylari bilan bir necha top’lamlarda birgalikda chop ettirilgan. J.H.Makkartining tarjima ruboiylari she’riy uslubda bo’lmaganligi sababli ular xuddi nasriy matn ko’rinishiga ega:

A drop of water sorrowed to be sundered from the oceans. Ocean smiling said: “We are all in all, God is within and around ud, and we are devided but by an imperceptible line”⁵⁷

5. Richard Le Gallien (1866-1947) o’z she’riy tarjimalarini “bir nechta badiiy tarjimalarning boshqacha izohlanishi” sarlavhasi ostida 1897-yilda e’lon qildi. Kitobxonga eslatma tarzida muallif o’z tarjimalarining dunyoga kelishida Makkartining “jozibali nasriy tarjimasi” ta’sirini ta’kidlab o’tadi. U o’z ruboiylarini tarjima tarzida emas, balki qayta hikoya qilish deb qabul qilish kerakligini bildiradi. Le Gallien o’zida tarjima yaratishdek lingvistik qobiliyat yoqligini tan oladi. Shu sababli ham bu asar FitzJerald ruboiylariga sharh sifatida tilga olinadi.⁵⁸

6. Edvard Gern-Allen (1861-1943) 1898-yilda nasriy tarjima yaratdi. U, shuningdek, J.Nikolasning fransuz tiliga qilingan Xayyom ruboiylari tarjimasiga

⁵⁶ Whinfield E. “The Quatrains of Omar Khayyam”, London – 1883. p:69

⁵⁷ McCarthy J.H. MP “Omar Khayyam, Rubaiyat of Omar Khayyam” [London] : D. Nutt, 1889. P:40

⁵⁸ Galliene R. “Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations” New York, 1897 p:6

tayanib, ruboiylarning ingliz tarjimalarini yaratgan Fredrik Rolfening kitobi muqaddimasini yozgan. Olim Edvard Gern - Allen «FitzJeraldning Umar Xayyom ruboiylari tarjimalari» asarida tarjimonning 101 ta ruboiysini tahlil qilib shunday fikr bildiradi:

« FitzJeraldning 49 ta tarjimasi ishonchli va chiroyli iboralarga boy, 44 tasi esa aniqroq va asliga to`gri. Ikkitasida Xayyom she`riyatining mohiyati yaqqol ko`rinadi. Ikkitasi Mantiq-ul Tayir asaridan ta`sirlanib yaratilgan bo`lsa, qolgan ikkita ruboiyda Xayyomdan ilhomlangan Hofiz She`roziy she`riyatidan va yana ikkitasida fransuz tarjimon Nikolas chop etgan tarjimalardan foydalanilganini kuzatish mumkin».⁵⁹

Edvard Gern-Allenning nasriy ruboiylari tasviriy ifodalar va obrazli uslubiy vositalar bilan badiiylashtirilgan. Uning nasriy tarjimasi to`rtlik shakliga ega:

To the ear of my heart heaven whispered secretly: -

“The commands that are decreed thou mayst learn from me:

had I a hand in my own revolutions,

wine would have saved me from giddiness”⁶⁰

7. Ingliz romannavisi, sharqshunos Jessi Kadel (1844-1884) ruboiyning ajoyib nashrini tayyorlash maqsadida, turli qo`lyozmalarni diqqat bilan ko`zdan kechirdi. Kadel xonim ruboiyotni tarjima qilgan ilk ayol mutarjimdir, undan keyin juda kam xonimlar uning izidan borishdi. Jessi Kadel fikriga ko`ra, Edvard FitzJerald nusxasi Xayyom haqidagi to`rtliklardir, tarjimalar emas. Bundan tashqari FitzJerald tarjimalarini o`qigan nomutaxassis kitobxon sharq falsafasi javohiri bo`lgan Umar Xayyom ruboiyotini o`z aslicha tushunishga erisholmaydi, deb ta`kidlaydi. Kadel xonim tarjimalari 150 ruboiyni o`z ichiga olib, vafotidan keyin 1899 -yilda chop etilgan.⁶¹

8. Fredrik York Povelning 1900-yilda nashr etilgan “Xayyomdan 24 ruboiy” asari ruboiylarning yangi asrdagi zamonaviy tarjimasini boshlab berdi desak,

⁵⁹ Edvard H-A. “The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes”, Podleian Library, H.S.Nichols.Ltd, London 1898, p:8

⁶⁰ The same source p:26

⁶¹ [Cadell J.](#) “The Quatrains” [London] : D. Nutt, 1899 p:3

adashmaymiz. Bu to'plamga Frenk Ankenbrend tomonidan yozilgan kirish va bibliografik qaydlar ham kiritilgan.⁶²

9. 1908-yilda Artur B. Talbot Edvard Gern-Allenning nasriy tarjimalarini she'riy tarzda qayta tarjima qildi. Bundan oldin ham bunday tarjima yaratilgandi. 1901-yilda Charliz G. Blanden o'zining "Omar Resung" nomli to'plamida Jastin Hantli Makkarti qalamiga mansub 466 ruboiyni she'riy tarzda qayta yaratgan edi. Tez orada Edvard Gern-Allenning nasriy va Artur Talbotning she'riy tarjimalari birgalikda nashr ettiriladigan bo'ldi. 158 ta ruboiyni o'z ichiga oluvchi ushbu tarjimalar to'plamining kirish qismida Edvard Gern-Allenning quyidagi fikri keltiriladi:

"It does not aim at being an edition of the Ruba'iyat of Omar Khayyam in general, but it is an attempt to place before English readers a literal translation of the oldest known MS. of the quatrains, and an exposition of the most important section of the material used by Fitzgerald in the construction of his poem."⁶³

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqadiki, tarjimon Edvard Gern-Allen ingliz kitobxonlariga FitzJerald tarjimalaridagi manbalarga asoslangan badiiy tarjimani taqdim etishni maqsad qilgan.

10. "Fors astronomi, shoir Umar Xayyom ruboiylari" nomli tarjima 1913 - yilda Flip Li Varner muallifligi ostida nashrdan chiqdi. Bunda FitzJerald she'riy tarjimalarining ta'sirini kuzatish mumkin.

11. Ben Elmi she'riy tarjimalarini "ishonchli va badiiy tarjima" sarlavhasi ostida 1915-yilda nashr qildi. U o'z tarjimalarida turli tillardan foydalangani uchun "Esparantist" nomi bilan mashhur.⁶⁴

1959-yilda taniqli fors va arabshunos olim, prof. A.J.Arberri 13-asrdagi qo'lyozmalarga tayanib, Xayyom ruboiylarining ilmiy mazmundagi nashrini yaratishga harakat qildi. A.J.Arberri tarjimasi **abba abba** vaznidagi 2 banddan iborat:

⁶² Powell F.Y. "Quatrains from Omar. "Monroe : The Sunnyside Press, 1936, p:5

⁶³ https://archive.org/details/rubaiyat_heronallen_talbot

⁶⁴ https://en.wikipedia.org/wiki/Rubaiyat_of_Omar_Khayyam#Translations

Now with a glass one measure high
Grief I will slay, old foe of mine
And, having quaffed two points of wine,
Count no man half as rich as I.
First, in divorce thrice over cried
Reason and faith I will put away,
Then take, to crown my happy day,
The daughter of the grape for bride.⁶⁵

Arberrining ruboiylari tarjimasiga Edvard FitzJeraldning tarjimasiga o`xshab ketadi, biroq so`zlarning badiiy bo`yoqdorligi forscha matndagi kabi murakkab birikmalar orqali ifodalangan va ikki banddan iboratligi sababli asl mohiyat tarjimada ham saqlangan.

12. Robert Greyvs va Umar Ali-shah qalamiga mansub tarjimalar bir muncha munozarali bo`ldi. Ularning 1967-yilda chop etilgan ruboiylar tarjimasiga 1968-yilda soxta manbaga asoslangani oshkor etildi. Mualliflar o`z tarjimalarida 12-asrga tegishli Afg`onistondagi qo`lyozmaga asoslanishganini ta`kidlashgan edi. Biroq britaniyalik forsshunos mutaxassislar bu mutarjimlarning Edvard Gern-Allen muallifligidagi FitzJerald asarlarini o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlarga asoslanishganini isbotlay oldilar. Greyvs va Ali-shah to`plam muqaddimasida xayyomona ohangni shunchalik ta`sirchan bera olgan ediki, kitobxonlar bu sharhlarga tayanib, ular yaratgan tarjima ruboiylarni sevib o`qiy boshladilar.⁶⁶

13. "Bir yuz ellik ruboiy" esa 1968-yilda V.G.Berton qalamiga mansub tarjima va qisqartmadir.⁶⁷

14. Peter Averl va Jon Hez-Stabs tomonidan 1979-yilda chop etilgan 235 ruboiyning "ingliz tilidagi badiiy jihatdan ravon" zamonaviy tarjimalari asl forsiy nusxaga tayaniladi. Bu nashr tematik ruboiylarning ikki nusxasidan iborat.⁶⁸

⁶⁵ Arberry, Arthur J. "Omar Khayyam; a new version based upon recent discoveries", London, John Murray, 1959 p:89

⁶⁶ Graves R. and AliShah O. "The original Ruba'iyyat of Omar Khayyam; a new translation with critical commentaries" - Tucson, Omen Press, Inc., 1972 p:56

⁶⁷ Burton W. G.. "One hundred and fifty Ruba'iyyat of Omar Khayyam;" Ryde, Francon, 1968 p:5

15. Iftixor Azmiyning “Ko`zgu va ko`z” nomli 1984-yilgi kitobi Richard Kennedi tomonidan rasmlar bilan boyitilgan.⁶⁹

16. 1988-yilda Xayyom ruboiylari taniqli ingliz-fors mutarjimi Karim Imomiy tomonidan tarjima qilindi. Imomiyning tarjimalari “Nishopur mayi” nomi ostida Parijda chop etildi. Bu to`plam Shohruh Gulistan qalamiga mansub rasmlar bilan bezatilgan.⁷⁰

In spring if a houri-like sweetheart
Gives me a cup of wine on the edge of a green cornfield,
Though to the vulgar this would be blasphemy,
If I mentioned any other Paradise, I'd be worse than a dog.

17.1991-yilda Ahmad Saidiy (1904-1994) 165 ruboiyning inglizcha tarjimasini yaratdi. U ruboiylarni 10 mavzu ostida guruhlaydi. U ingliz tildagi tarjima ruboiylar yoniga forsiy tildagi nusxasini ham keltirdi. U e`tiborini Xayyom ruboiylardagi asl diniy, ilohiy va tarixiy mazmunni ochib berishga qaratdi.⁷¹

18. 1996-yilda omma e`tiboriga Parvin Mahmud tomonidan qilingan saralangan ruboiylar tarjimasi e`lon qilindi. Bu ruboiyot asl matn va badiiy tarjimadan iborat edi.⁷²

19. E.Vinfildning she`riy tarjimalari forsiydagi asl ruboiylar matni bilan birgalikda 2000-yilda qayta nashr qilindi.⁷³

20. “Umar Xayyom ruboiylari” nomi ostida 2005-yilda chop etilgan to`plam Justin Makkarti, Richard Le Gallien va Edvard FitzJerald tomonidan qilingan tarjimalarni o`z ichiga olgan bo`lib, bu to`plam Gerbert Kol tomonidan suratlar bilan boyitilgan edi.⁷⁴

⁶⁸ Avery P. and Heath-Stubbs J. The Ruba'iyat of Omar Khayyam; Harmondsworth, Penguin Books, 1981 p:142

⁶⁹ Azmi I, The mirror & the eye: Ruba'iyat of Omar Khayyam,Whittington, [cop. 1984] p:6

⁷⁰ Emami K. “ The Wine of Nayshabur:, Paris, Souffles, 1988 p:46

⁷¹ Saidi A.”Ruba'iyat of Omar Khayyam;Berkeley, Asian Humanities Press 1991 p:12

⁷² Mahmoud P. The Ruba'iyat. Tehran: San'at Rooz (Kashani) Press, 1996 p:10

⁷³ The Ruba'iyat of Omar Khayyam. Abridged and translated by E.H. Whinfield. : OctaviaOccult.Com, 2004 p:20

⁷⁴ The Quatrains of Omar Khayyam. Three translations of the Rubáiyát by Justin McCarthy, Richard le Gallienne, Edward FitzGerald. Illustrations by Herbert Cole. - Oregon House : Bardic Press, 2005 p:146

Yuqoridagi tarjima asarlarning mazmuni muallining Xayyom falsafasiga qanday yondashuviga bogʻliq. Xayyom ruboiylarining turlicha tahlili hamda toʻplamlardagi ruboiylar tartibining turlicha keltirilishi turli nashrlarning chop ettirilishiga asos boʻldi. Har bir ingliz tarjimoni oʻz mahorati va yorqin tarjimonlik isteʼdodi bilan sharq durdonasi hisoblangan Xayyom ruboiylarini gʻarb kitobsevarlariga yetqazishga harakat qilgan.

2.2. Umar Xayyom ruboiylarining mavzusi boʻyicha tasniflanishi

Badiiy adabiyot rang-barang adabiy asarlar majmuidan tarkib topadi. Adabiy asar oʻz tuzilishiga koʻra murakkab mexanizmini eslatadi. Negaki adabiy asar "organizm" da oʻnlab gʻoyaviy-badiiy unsurlar mavjud. Chunonchi badiiy ijod mahsulida mavzu, masala, goʻya, obraz, syujet, konflikt, kompozitsiya, til, maxsus leksik qatlamlar, koʻchimlar, badiiy sanʼatlar, poetik figuralar, sheʼr tuzilishi, adabiy tur va janr, metod va uslublar alomatlari boʻladi. Adabiy asar mana shu unsurlarning birikib kelishidan paydo boʻladi.

Asarning mavzu va gʻoyasi bu sanʼat asarining mazmunini, mohiyatini tashkil qiladi. Mavzu (yun.thema – asosida turuvchi) – badiiy asarda falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va boshqa muammolarni qoʻyish hamda yoritishga xizmat qilgan, shu asarning hayotiy asosini tashkil etgan voqea-hodisalar doirasidir.⁷⁵

Umar Xayyom ruboiylarida ham bir qancha mavzular yoritilgan. Ushbu mavzular turlicha tasvirlangan hayotiy masalalarni tashkil qiladi. Xayyom hayoti, ijodi va shuningdek, u tomonidan yaratilgan ruboiylari tarjimasi bilan shugʻullangan xayyomshunos olim va tanqidchilar ushbu ruboiylar mavzusini turlicha tasniflaydilar. Jumladan, 1852-53-yillarda Edvard Vinfield tomonidan nashr qilingan "The Quatrains of Omar Khayyam" nomli toʻplamning kirish qismida muallif Xayyom ruboiylarini mavzusi boʻyicha 6 guruhga boʻladi:⁷⁶

⁷⁵ Бобоев Т. "Адабиетшунослик асослари", Тошкент – «Ўзбекистон» - 2002 Б:101

⁷⁶ Whinfield E. "The Quatrains of Omar Khayyam", London – 1883. p:23-24

I. Shikoyati ro`zg`or— “taqdir charxpalagi” yoki taqdiridan norozilik va nohaqliklar, yaqinlaridan ayrilish hamda insonning ojizligi to`g`risidagi shikoyatlar.

II. Hajv— din mutaassiblarining savodsizligi va ziyolilarning bilimsizligi, kelajak avlodga befarqligi to`g`risidagi hajvlar

III. Firoqiya va Visoliya— oshiqning firoq va visol to`g`risidagi ishqnomalari (ham badiiy, ham falsafiy)

IV. Bahoriya— bahor, yangilanish, bog`lar va gullar haqidagi madhlar

V. Kufriya— g`ayridin mazmunidagi ta`kidlar, insoniyat va boshqa mavjudotlar gunohlarining sharhi

VI. Munojot— Ollohga gunohlari uchun kechirim ohangidagi murojaatlar

Xayyom ruboiylarining ilk tarjimoni Edvard FitzJeraldning “The Rubaiyat of Omar Khayyam” to`plamidan joy olgan inglizcha ruboiylar ham mazmun jihatdan ham bir qancha guruhlariga bo`lingan. Umuman, ishq va hayot, inson tafakkurining qudrati, umrning ma`nosi, insoniy fazilat va qusurlar, ma`rifat va jaholat kabi mavzular shoir ruboiylarining asosini tashkil etadi.⁷⁷

1. Ruboiylarning ko`pchiligi “umr o`tkinchi, vaqtni chog` o`tkaz” mazmunidadir. Ingliz adabiyotida ushbu mazmundagi asarlarga “**Carpe Diem**” nisbati beriladi

And, as the Cock crew, those who stood before

The Tavern shouted—“Open then the Door!

“You know how little while we have to stay

And, once departed, may return no more.”⁷⁸

Yoki quyidagi ruboiyda ham:

Ah, make the most of what we yet may spend,

Before we too into the Dust descend;

⁷⁷ www.gpedia.com/uz/gpedia/Umar_Xayyom

⁷⁸ FitzGerald E. “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 3 p:17

Dust into Dust, and under Dust to lie,

Sans Wine, sans Song, sans Singer, and—sans End!⁷⁹

Ruboiyda hayotning ko`p qismini yashab qolish kerakligi, tez orada hech nima: na sharob, na qo`shiq qo`lmasligiga izoh berilgan.

Xayyom go`zallikka real hayotiy insoniy yondashuvni maqbul ko`radi. Uning nazarida, insondan tashqaridagi go`zallik, avvalo, tabiatda, gullarda, lolalarda, bahorda tajassum topadi. Lekin u – o`tkinchi. Bu go`zallikdan lazzatlanish uchun juda qisqa vaqt berilgan; go`zallik umri bilan inson umri shu jihatdan o`xshash. Buni Xayyom bir ruboiysida bunday ifodalaydi:

As then the Tulip for her morning sup

Of heavenly Vintage from the soil looks up

Do you devoutly do the like, till Heaven

To earth invert you – like an empty Cup.

“Hayotni yashash kerak, hayot o`tib ketmoqda” mazmunidagi ruboiylarda to`xtamasdan o`tib ketayotgan bu hayotning barcha zavq-shavqlaridan bahramand bo`lishga chorlanadi. Masalan, FitzJeraldning juda ham mashhur va Xayyom nomi tilga olinganda g`arb va sharq kitobxonlari ko`z oldida birinchi bo`lib tasvirlanadigan quyidagi ruboiy ham shu mazmunda:

Jug of Wine, Loaf of Bread and Thou

Book of Verses underneath the Bough,

Beside me singing in the Wilderness-

Oh, Wilderness were Paradise enow!⁸⁰

O`zbekcha tarjimasi:

Qo`limizda bo`lsa oq bug`doy noni,

Bir kosa sharobu qo`yning bir soni

Dilbar bilan mayli vayronadamiz,

Bu ayshni topolmas jahon sultoni.⁸¹

⁷⁹ FitzGerald E. “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997 p:25

⁸⁰ FitzGerald E. “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 12 p:30

⁸¹ Умар Хайем. Рубоийлар.// Тузувчи Ш.Шомухаммедов. / . – Т.: «Шарк», 2003 Б-112

Kimdir bu dunyo lazzatlaridan bahramand bo'lishga intiladi, kimdir esa ruhiy komillikka oshiqadi. Yaxshisi yashash qadrini bilib, bu narsalar haqida o'ylamaslik kerak. Hayotning naqdidan zavq olib, nasiyadagi narsalar haqida bosh qotirishning hojati yo'q. Quyidagi ruboiy ham ana shu mazmundadir:

Some for the Glories of This World; and some
Sigh for the Prophet's Paradise to come;
Ah, take the Cash, and let the Credit go,
Nor heed the rumble of a distant Drum!

Faylasuf-shoir hayotiy savollarga javob topishga urinadi va uni maydan, yor vaslidan, lazzatdan, tabiat go'zalligidan, axloqiy yuksaklikdan, falsafiy tafakkurdan izlaydi. Shu sababli Xayyom ham go'zallikka alohida e'tibor beradi, uni inson bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq holda olib qaraydi. Jumladan, narsalar go'zalligi ham inson bilan bog'liq. Masalan, oltin nima uchun go'zal? «Navro'znoma»da aytilishicha, u qimmatbaho rangli metall bo'lgani uchun emas, balki inson undan bezak sifatida foydalangani, uning jismonan sog'lomlashuviga xizmat qilgani sababli go'zaldir.⁸²

Xayyom xulqiy go'zallik haqida fikr yuritar ekan, tashqi va ichki go'zallik uyg'unligi masalasiga alohida urg'u beradi, barcha mashoiyyun faylasuflar kabi, go'zallik bilan ezgulikning yaxlit namoyon bo'lishini ta'kidlaydi; go'zallikni go'zal qiyofa bilan bog'lab talqin etadi: «Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi. Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'rnini bosa olmaydi, chunki u shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kelolmaydi. Aytadilarki, go'zal yuz dunyo saodati sababchisidir. Agar go'zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg'unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo'ladi. Agar odam, ham tashqi ko'rinishi, ham tabiati yaxshi bo'lsa, Xudo va odamlar uchun sevimlidir. Go'zal yuz to'rt fazilatga egadir. Ulardan biri shuki, go'zal yuz uni ko'rgan odamning shu kunini xayrli

⁸² <http://kh-davron.uz/tag/umar-xayyom/> Umar Xayyom. Navruznoma & Abdulla Sher. Umar Xayyom: Kelmagu ketmakdin ne erur maqsud?.

etadi, ikkinchisi – hayotdan bahramand bo‘lish onlarini shirin qiladi, uchinchisi – u odamni ochiq ko‘ngilli va olijanob etadi, to‘rtinchisi – boylikni ko‘paytiradi va yuqori mansab ato etadi»⁸³.

Ba’zi ruboiylarida esa Xayyom go‘zallikni, shu jumladan xunuklikni ham, «Avesto» talqinlariga yaqin nuqtai nazardan olib qaraydi. Go‘zal yuz, go‘zal xulq egasi bo‘lmish nozanin vaqti kelib gulga, maysaga, lolaga aylanadi. FitzJerald ham ruboiylarni ingliz tiliga tarjima qilayotganda Xayyomning shu jihatdan yondashuvini saqlab qoladi:

And this revivins herb whose tender Green
Fledges the River – Lip on which we lean –
Ah, lean upon it lightly! For who knows
From what once lovely Lip it springs inseen!⁸⁴

Xunuk xulq egasi bo‘lmish qo‘pol, go‘zallikdan bebahra insonning ruhi esa xunuk jonzotlar qiyofasiga ko‘chib o‘tadi. Shu jihatdan Xayyomga nisbat berilgan bir ruboiy bilan bog‘liq rivoyat e’tiborga molik: Xayyom o‘tib borar ekan, ko‘cha bo‘yidagi machitni ta’mirlayotgan odamlarga ko‘zi tushadi; bir necha kishi g‘isht yuklangan eshakni machit ostonasidan ichkariga kiritolmay halak edilar. Xayyom nima gapligini bilgach, borib eshaknig qulog‘iga nimalardir deydi, eshak darhol ichkari kiradi. Odamlar buning sababini so‘raganlarida, Xayyom bir vaqtlar shu masjidda o‘ta badfe’l, xunuk xulq egasi bo‘lgan odam mutavalilik qilganini, o‘lgach esa, uning xunuklikka yo‘g‘rilgan ruhi shu eshak qiyofasiga o‘tganini, hozir u o‘zini tanimayotganlari uchun ichkariga kirmay, tixirlik qilib turganini, eshakning qulog‘iga: «Biz seni tanidik», deb to‘rt satr she’r o‘qigach, bu tixirlikning to‘xtatganini aytadi. Mana, o‘sha rivoyatga sabab bo‘lgan ruboiy:

Ketibsan, qaytibsan adashibroq yana ham,
Isming ko‘tarilgandi yodimizdan, ey odam,

⁸³ <http://kh-davron.uz/tag/umar-xayyom/> Umar Xayyom. Navruznom & Abdulla Sher. Umar Xayyom: Kelmagu ketmakdin ne erur maqsud?.

⁸⁴ FitzGerald E. “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 45. P:80

Soqoling dum bo‘libdi, o‘sib chiqib ortingdan,
Tirnoqlaring qo‘shilib tuyoq bo‘lmishdir bu dam⁸⁵.

FitzJerald tarjima qilgan ruboiylar top`lamida bu ruboiy uchramaydi.

2. “Sharob – hayot suvi” mazmunidagi ruboiylar ham Xayyom she’riyatiga xos jihatdir. Shoirning fikricha, sharob shunday narsaki, hayotni yashashga arzigulik qiladi. U barcha boshdan kechirgan narsalar: xursandchilik, dilxiralik, g`alaba hamda fojialarning jamlanmasidir.<sup>86</sup> Shuning uchun ham muallif ko`p va xo`p “**sharob**” dan bahra olishga chorlaydi.

Whether at Naishapur or Babylon,
Whether the Cup with sweet or bitter run
The Wine of Life keeps oozing drop by drop,
The Leaves of Life keep falling one by one.⁸⁷

Haqiqiy umr kechirish, har qanday mantiqdan ham kuchliligi hamda u har qanday jismni oltinga aylantira oladi. Tez-tez uchrab turadigan may, sharob, chog`ir obrazlari ilohiy muhabbat, hayot lazzatlarini ulug`lash vositasi hamdir:

Waste not your Hour, nor in the vain pursuit
Of This and That endeavor and dispute;
Better be jocund with the **fruitful Grape**
Than sadden after none, or bitter, Fruit.

FitzJeraldning ommaga keng tarqalgan tarjima ruboiylari orqali qayta tanilgan Xayyom shaxsi va uning ruboiylaridagi may mavzusi to`g`risida G`arb va Sharq tanqidchilari orasida XX asrning o`rtalarida yanglish tushuncha paydo bo`la boshladi. Xayyomni kofir, daxriy, botiniy, shariatini oyoq osti qiluvchi deb targ`ib qildilar. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa matafakkirlar ham shu mavzuga o`xshash she`r, g`azal va ruboiylar bitganlar. Bu shoirlarning she`rlarida ham “may” obrazi yaqqol ko`zga tashlanadi. Jumladan, Alisher Navoiy shunday yozadi:

⁸⁵ <http://kh-davron.uz/tag/umar-xayyom/> Umar Xayyom. Navruznom & Abdulla Sher. Umar Xayyom: Kelmagu ketmakdin ne erur maqsud?.

⁸⁶ The Rubaiyat of Omar Khayyam - Edward Fitzgerald Teachers / Student Resource Guide p:6

⁸⁷ FitzGerald E. “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, University of Virginia Press, 1997, Quatrain 16

Zohid senga huru menga jonona kerak
Jannat senga bo`lsin, menga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiyu paymona kerak
Paymona necha bo`lsa to`la yona kerak.

Ma'nosi: Zohid sen jannat hurlari ilinjida xotin va bola chaqadan kechasan va hurlar senga bo`lsin, ammo menga esa haq jalla jalolohuning jamoli kerak. Jannat senga bo`lsin, menga ma'rifat markazi kerak Ma'rifat markazida ilmu ma'rifat tarqatguvchi va ma'rifat kosasi kerak. Ma'rifat kosasi qancha bo`lsa yana shunchasi kerak. Bu yerdagi tushunish mushkulroq bo`lgan «jonona» so`zining tasnifini olaylik. Falsafiy she'rda «jonona» yoki «jonon» deganda borliqning koinot va undagi mavjudotning uzluksiz harakatini ta'minlab, bor qilib turish sifati tushuniladi va bu sifat faqat Ollohgagina mansubligini e'tirof etiladi.⁸⁸

Yoki Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub ushbu baytda ham “may” obrazini ko`rish mumkin:

Gul davrida ich bodanikim, oqil emastur
Har kimki, bu kun dunyoda hushyor topilsa.

Ma'nosi: Gul davridan murod yana o'sha umr bahori, ya'ni kishining ilm o'rganib, hunar egallaydigan yoshlik davri va boda, ya'ni maydan maqsad ma'rifatdir. Binobarin, bu baytni bahorni ichkilikbozlik qilib ko'ngilni aynitib, boshingni og`ritib o'tkaz, deb emas, balki umrdan yaxshi hosil olish uchun uning gul davridagidek gullaydigan hosilga zamin tayyorlovchi yoshlik davrida ichkilik emas, ma'rifat bodasini ich, kimki bu dunyoda ichkilik tufayli es-hushini yo`qotmagan bo`lsa-yu, hunar o'rganib ilm olib haqiqat sirlarini bilishga intilib, kamolot hosil etishga harakat qilmasa, uni aqlli kishi deb bo`lmaydi.

Aloyo ayyuha-s-soqiy, adir ka'san va novilho
Ki ishq avval namud oson, vale uftod mushkulho.

Ya'ni: Qani, ey soqiy, bir kosani aylantirib, uni menga ham yetkaz, chunki ishq avval oson ko`rinib, keyin qiyinchiliklar yuz berdi. Bu baytdagi soqiydan

⁸⁸ www.kh-davron.uz /Umar Xayyom. Navruznomi & Abdulla Sher. Umar Xayyom: Kelmagu ketmakdin ne erur maqsud?..

murod ma'rifat tarqatuvchi kishidir. Kosadan maqsad ma'rifatdir, ishq esa ma'rifat ishqidir. Binobarin, bu baytning haqiqiy mazmuni shunday bo'ladi: Ey, ma'rifat oshiqlarining ustози, ma'rifat idroki menga avval osondek ko'ringan edi, ammo buning ko'pgina kiyinchiliklari chiqib, mening unga bo'lgan ishqimni susaytir moqda. Shuning uchun sen davrangga yig'ilgan shogirdlaringni, jumladan, meni, ma'rifat sirlaridan birozgina ogoh qilib, soviyotgan ko'nglimizni qizdirgin. Shuningdek, Abdurahmon Jomiyning «Ey bodaparastan dar-i maykhona kujo ast», ya'ni «Ey mayparastlar, mayhonaning eshigi qayerda», deb boshlanuvchi baytini olaylik. Bu «Ey ma'rifat istaguvchilar, ma'rifat uyining eshigi qayerda degan ma'noni bildiradi va Navoiyning «Kofermen agar qilmasam oqshom qadah» kabi murojaati esa «Kofirman, agar har kecha ma'rifat kosasidan sipqirmasam», degan ma'noni bildiradi. Yuqorida berib o'tilgan ruboiylar va baytlarda mayning istiora ma'nolari qo'llanilgan.⁸⁹

Xayyom ham mumtoz adabiyot ixlosmandlari qalbidan joy olgan ruboiylarida «may» ga ko'p marotaba ishora qiladi. Bu FitzJerald tarjimalarida ham saqlanib qolingani:

And lately, by the Tavern Door agape,
Came shining through the dusk an Angel shape
Bearing a Vessel on his shoulder, and
He bid me taste of it, and twas – the Grape!⁹⁰

Garchand, yuqorida aytib o'tganimizdek, Xayyom so'fiylarga yon bosib, risolalarida tasavvuf ahli maqomini baland qo'ysa-da, uning ruboiylaridagi sharob bu – mutasavvif shoirlar kuylagan ramziy may emas. U – uzumdan tayyorlangan ichimlik. Masalan, «Navro'znoma» asarida Xayyom may tarixiga to'xtalishi barobarida hatto qizil, sariq va qoramtir may turlarini tayyorlash jarayonlariga alohida boblar ajratadi hamda may tayyorlashni qiyomiga yetkazish usullari haqida mufassal ma'lumot beradi. Biroq ayni paytda, «Xayyomning mayi» ramziy ma'noga ham ega, u – go'zallikni idrok etish vositasi. Musiqa, go'zal yor jamoli bilan

⁸⁹ Rustamov A. «So'z xususida so'z», «Sharq» – 1980, 61-bet

⁹⁰ Edward FitzGerald «The Rubaiyat of Omar Khayyam», Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, p:79

birgaliqda may insonda forig‘lanish holatini vujudga keltiradi – hayotning xunuk voqealaridan, jamiyatdagi pastkashlik, maydakashlik, manfaatparastlik singari illatlardan forig‘ bo‘lish, ulardan bir bosh baland turish, bahor va yor go‘zalligidan, gul va ko‘ngil go‘zalligidan lazzatlanish imkonini beradi.

Ah Love! Could and I with him conspire
To grasp this sorry Scheme of things entire.⁹¹

Yana boshqa e‘tiborli jihat shundaki, Xayyom ruboiylaridagi may inson uchun ko‘zgu vazifasini o‘taydi. U insondagi axloq va axloqsizlikni, go‘zallik va xunuklikni ham o‘ziga, ham atrofga namoyon etuvchi vosita. Shu sababli uning tarbiyaviy ahamiyati katta, may – «shaxsni shaxs qiladi»:

For “Is” and “Is not” though with Rule and Line
And ”Up and Down” by logic I define,
Of all that one should care to fathom, I
Was never deep anything but – wine.⁹²

Bu satrlar shunchaki shoirona tashbeh, go‘zal lutf uchungina aytilgan so‘zlar emas, balki chuqur mushohada va mulohazalar asosida chiqarilgan xulosa; Xayyom mayni ishonch bilan an‘anaviy axloqiy-estetik vosita sifatida talqin etadi. Zotan, aynan shunday fikrlarni «Navro‘znoma» risolasidagi «Mayning foydasi haqida» degan bobda ham ko‘ramiz: «Ba’zi ziyrak odamlar mayni haqiqiy insoniylik mahagi deyishadi. Ba’zilar uni idrok tanqidchisi, ba’zilar – bilish mezoni, ba’zilar – qobiliyat ko‘zgusi deydilar... Kimda-kim besh jom mayi nob ichsa, o‘zidagi yaxshilik va yomonlikni, ya’ni o‘zining ma’naviyatini ko‘rsatadi... Dono odam... ichishni boshlaganidan tugatguncha uning na so‘zlarida va na xatti-harakatlarida hech qanday qo‘Pollik va yomonlik namoyon bo‘lmaydi. Inson shu darajaga (maqomga) yetgandagina may ichishi mumkin», deb yozadi Xayyom⁹³. Uning ko‘pgina ruboiylarida bu fikrlarga hamohanglikni ko‘rish mumkin.

FitzJerald Xayyom ruboiylarini tarjima qilganda may ichish uchun ishlatiladigan ko‘za, jom yoki piyola ma’nolaridagi turli so‘zlardan foydalanadi.

⁹¹ The same source p:64

⁹² The same source p:22

⁹³ Xayyom U. Navro‘znoma, “Mehnat”, 1990, 54-bet.

Jumladan, “bowl”, “cup”, vessel”, “urn”, pipkin”, “pot” va “glass” kabi idish nomlaridan tarjima davomida 25 marta foydalanilganini kuzatish mumkin:

“Ah, fill the Cup: - What boots in to repeat”;⁹⁴

“I think the Vessel, that with fugitive”;⁹⁵

“Would break the Bowl from which he drank in joy”;⁹⁶

“Then to the Lip of this poor earthen Urn”;⁹⁷

Bu FitzJeraldning jomning hayotiy belgi ekanligiga ishorasidir.

3. “Taqdir” mavzusida yozilgan ruboiylar ham Xayyom ruboiylari orasida katta qismni egallaydi. Bu mazmundagi ruboiylarda Yaratganning kuch-qudrati va insonning oʻz taqdiri oldida ojizligi betakror obrazli uslubiy vositalar va badiiy ifodalar orqali tasvirlanadi. Masalan, FitzJerald tarjimasiga mansub, quyidagi mashhur ruboiy ham aynan shu mazmunda:

The Moving Finger writes; and, having writ,

Moves on: nor all thy Piety nor Wit

Shall lure it back to cancel half a Line,

Nor all thy Tears wash out a Word of it⁹⁸.

Ruboiyda taqdir oldida insonning chorasizligi ifodalangan. Koinot, vaqt va qismat oʻz hukmini oʻtkazmasdan qoʻymaydi. Qismat **“moving finger”** metaforasi orqali inson taqdirining qalamkashi tarzida tasvirlanadi.

Yoki:

For some we loved, the loveliest and the best

That from his Vintage rolling Time hath prest,

Have drunk their Cup a Round or two before,

And one by one crept silently to rest.

Baʼzi ruboiylarda taqdir bilan bir qatorda hayotning oʻtkinchiligi va foniyl dunyo emas, balki boqiy dunyo toʻgʻrisida bosh qotirish va doimo yaxshi amal -

⁹⁴ Умар Хайем. Рубоийлар.// Тузувчи Ш.Шомухаммедов. / - Т.: «Шарк»-2003. 25 бет

⁹⁵ Ўша манба. 33 бет

⁹⁶ Ўша манба. 39 бет

⁹⁷ Ўша манба. 40 бет

⁹⁸ Edward Fitzgerald “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 62 p:79

larni qilish kerakligi ta'kidlanadi:

Alike for those who for TO-DAY prepare,
And those that after some TO-MORROW stare,
A Muezzin from the Tower of Darkness cries,
"Fools! your Reward is neither Here nor There." ⁹⁹

Yoki:

Tis but a Tent where takes his one day's rest
A Sultan to the realm of Death arrest;
The Sultan rises, and **the dark Ferrash**
Strikes, and prepares it for another Guest. ¹⁰⁰

Bu ruboiyda hattoki sulton qanchalik qudratli bo'lmasin, o'lim farroshi birdan soya solishi va sultonning o'rnini boshqa kishi egallab, hayot davom etaverishi "realm of Death", "dark Ferrash" kabi chiroyli badiiy ifodalar bilan tasvirlangan.

Ruboiylarni tarjima qilishda FitzJerald har bir satrni o'xshatishlar bilan boyitishga harakat qilgan. Bu esa ruboiylarni shunchaki o'qib chiqayotgan kishiga ham badiiy zavq bag'ishlashi tabiiy:

But helpless Pieces of the Game He plays
Upon this Chequer – board of Nights and Days,
Hither and thither moves, and check, and slays,
And one by one back in the Closer cays. ¹⁰¹

Ruboiyda insonlar shaxmat donalariga qiyoslanadi. Bu o'xshatish orqali shaxmat donalarining qay tomonga harakatlanishi o'ziga boqliq bo'lmaganidek, insonlarning taqdiri ham o'z qo'lida emasligi o'z ifodasini topgan.

4. Inson tafakkurining behudaligi mavzusi ham ruboiylarda chiroyli o'xshatishlar, inkor etib bo'lmaydigan misollarda o'z aksini topgan.

Masalan:

⁹⁹ Edward FitzGerald "The Rubaiyat of Omar Khayyam", Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 25 p:33

¹⁰⁰ The same source, Quatrain 45 p:69

¹⁰¹ The same source, Quatrain 69 p:83

Why, **all the Saints** and **Sages** who discuss'd
Of the Two Worlds so **wisely**--they are thrust
Like foolish Prophets forth; their Words to Scorn
Are scatter'd, and their Mouths are stopt with Dust.¹⁰²

Ma'nosi: qanchalik olim-u dono bo'lib, nazariya va muammolarga yechib izlab, muhokamalar qilsak ham, bir kun og'izlarimiz yopiladi, ya'ni bu dunyoni tark etamiz. «Azal sirrin bilishga» ishtiyoq Xayyomni hech qachon tark etmaydi. Endi bu sirni tushuntirib berishni to'g'ridan-to'g'ri Xudoning O'zidan so'raydi. Ana shu nuqtada Xayyom ba'zi shariat peshvolarining «azal sirri» haqidagi gaplariga, insonni faqat qo'rquv vositasida e'tiqodi mustahkam mo'minga aylantirish mumkin, degan aqidalariga yoki yer yassi, uni ho'kiz ko'tarib turadi qabilidagi olamni nihoyatda jo'n tushuntirishlariga qarshi kulgililik tushunchasidan foydalanadi, uning zaharxandasi, kinoyasi kuchli timsolli tafakkur vositasida kutilmagan zarbalar shaklini oladi.

Yoki:

The Revelations of **Devout and Learn'd**
Who rose before us, and as Prophets burn'd,
Are all but Stories, which, awoke from Sleep
They told their comrades, and to Sleep return'd.¹⁰³

5. FitzJerald ruboiylarida Ollohga murojaatlar tarzida yozilgan savollar ham tarjimada uchraydi. Hali tirik inson o'lmasidan turib, uni «do'zaxga qulatib» qo'yuvchilarning fikrlashiga nisbatan zaharxandani, o'zlaricha Xudoning nomidan hukm chiqarib, kim jannatiy, kim do'zaxiyligini belgilash huquqimiz bor, deb o'ylovchilarning puch da'volariga nisbatan achchiq kinoyani ko'ramiz. Ularning o'zlari haqida esa Xayyom mana bunday haqqoniy ta'rifni go'zal ruboiy shaklida beradi.

Jumladan:

¹⁰² Edward FitzGerald "The Rubaiyat of Omar Khayyam", Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 26 p:34

¹⁰³ The same source, Quatrain 46 p:70

Why, be this Juice the growth of God, who dare
Blasphe^me the twisted tendril as a Snare?
A Blessing, we should use it, **should we not**?
And if a Curse--why, then, **Who** set it there?¹⁰⁴

Savollarning ko`pchiligida norozilik ohangi va hayot to`g`risidagi mulohazalarga javob topish uslubi singdirilgan. Ba`zi ruboiylarda esa umrning qisqaligi, inson bu dunyoni tark etgandan so`ng uning o`rnini kim egallashi mumkinligi savol tariqasida murojaat qiligan:

And we, that now make merry in the Room
They left, and summer dresses in new bloom,
Ourselves must we beneath the Couch of Earth,
Descend – ourselves to make a Couch – for whom?¹⁰⁵

Yuqoridagi FitzJerald tomonidan tarjima qilingan ruboiylar ham mazmuni bilan, ham shakli bilan benihoya go`zal. Badiiy asarda mazmun va shakl bir-biri bilan uzviy bog`liq: shakl mazmunning tashqi ko`rinishi bo`lib, unga go`zallik bag`ishlaydi, ayni chog`da mazmun ham biror shaklda namoyon bo`ladi. Mazmun va shakl mutanosibligi – adabiyat qonunidir.¹⁰⁶

II bob bo`yicha xulosa.

Umar Xayyom ruboiylari jahon adabiyotida o`z o`chmas o`rnini ingliz tarjimonlarining mohirona tarjimalari orqali topa olgan. Edvard FitzJeraldning Xayyom ruboiylarining asl fors manbalaridan ingliz tiliga qilgan tarjimalari eng ahamiyatlidir. Uning tarjimalarida kun ketma-ketligi tasviri vaqt o`tishini ifodalovchi metafora vazifasini o`taydi. Ruboiylar tarjimasidagi chiroyli iboralarga boylik, asliga to`g`rilik keying tarjimalarini ilhomlantira olgan.

¹⁰⁴ Edward FitzGerald "The Rubaiyat of Omar Khayyam", Christopher Decker, (University of Virginia Press, 1997, Quatrain 61, p:78

¹⁰⁵ The same source, Quatrain 23, p:32

¹⁰⁶ Бобоев Т. "Адабиётшунослик асослари", Тошкент – «Ўзбекистон» - 2002 Б:104

Edvard Vinfild, J. Makkarti, Edvard Gern-Allen , Jessi Kadel, A.J. Arberri, Piter Averi, Iftixor Azmiy, Karim Imomiylar tomonidan qilingan she'riy va nasriy tarjimalar to'plamida Xayyom ruboiylari turlicha tahlil qilingan. Umar Xayyom ruboiylarida insonlarning ma'naviy dunyosini boyitishga qaratilgan bir qancha mavzular yoritilgan. Umrning o'tkinchiligi, sharob, taqdir, inson tafakkurining behudaligi, Ollohga murojaatlar mazmunidagi ruboiylar shular jumlasidandir. Bu tarjima ruboiylarning ingliz adabiyotiga ta'siri haqida so'z yuritganda ularning asrlar osha til, madaniyat va etnik kelib chiqishi nuqatai nazaridan chegara bilmay kelayotganligini ta'kidlash lozim.

III BOB. “RUBOIYOT”NING INGLIZ TILIGA TARJIMALARI TAHLILI

3.1. Tarjimada obrazli uslubiy vositalarining qayta yaratilishi

She'riy tarjima, umuman tarjima ijodiy jarayon bo'lib, boshqa tilda asarni qayta yaratish san'atidir. Tillarda she'riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi. She'riy tarjimada asliyat va tarjima matni, ikki til she'riy tizimi qanday bo'lishidan qat'i nazar, har bir she'r o'ziga yarasha noyob asar sanaladi. Ma'lumki, she'riyat muayyan ritmga asoslanadi. She'riyat qonuniyatlari metrik birliklarda va ulaming turli ko'rinishlarida ifodalanadi. Bunda so'zning ma'no va ifodaviy uyg'unligi, so'z kuchi va hamohang ishlatilishi nazarda tutiladi. She'r musiqasi, o'z navbatida, so'z jarangi, so'z shakli va ma'no birligi natijasi hisoblanadi.

She'rda qo'llanadigan turli adabiy san'at namunalari she'riy musiqani amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bois har bir she'riy tizim o'z xususiyati, an'anaviy vazni, ritmi hamda ohangiga ega. She'riy tarjimada asarning hamma unsurlarini to'liq saqlab qolish imkoniyati yo'q, biroq ba'zi tarjimashunos olimlaming fikriga ko'ra she'rdagi obraz, she'riy hamohanglik saqlanishi lozim. She'riy obraz va hamohanglikning qanchalik saqlanishi tarjimon mahorati bilan belgilanadi.

Tasviriy vositalar badiiy matnda obrazlarning yorqin tasvirlanishiga xizmat qilish bilan birga kitobxon qalbida his-hayajon va kechinmalar uyg'ota olishi bilan ham xarakterlanadi. Bu esa kitobxonning ko'z oldida obrazlarning yorqin namoyon bo'lishini ta'minlaydi va xotirasida tez, oson saqlab qolishiga imkon beradi. Tasviriy vositalarning leksik, fonetik va sintaktik turlari mavjud bo'lib, ular bajaradigan vazifasi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Metonimiya, metafora, alliteratsiya, o'xshatish, gradatsiya shular jumlasidandir. Bu kabi taviriy vositalar yordamida betakror badiiy obrazlar yaratiladi.¹⁰⁷

¹⁰⁷ Norbayeva M.U. "Badiiy matndagi stilistik tasviriy vositalarning lingvokognitiv tadqiqi", Ilmiy xabarnoma, ADU, №2, 2014-yil, 46-bet

Quyida Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjima qilishda Edvard FitzJerald va A.J.Arberri tasviriy vositalardan qay darajada foydalanganini tahlil qilish mumkin:

Ruboiyning asli:

In **kohne rebat** ra ke alamnam ast
Varamgahe ablaghe sobh-o shamst
Bazmist ke vamandeh **sad Jamshid** ast
Qasrist ke tekye gahe **sad Bahram** ast.¹⁰⁸

O'zbekcha tarjimasi:

Bu eski ravot olam unga nom
Tun-kun tulporiga bor bunda orom
Bu eski bazm yuzlab Jamshiddan qoldi
Bu go`rda yotadi yuz-yuzlab Bahrom.¹⁰⁹

Bu ruboiyning aslida 5 ta metafora qo'llanilgan. E.FitzJerald va A.J.Arberri tarjima jarayonida ingliz tilining xususiyatlariga tayanib, biroz o'zgartirish kiritgan.

FitzJerald tarjimasi:

Think in this **battered Karavenseraï**
Whose portals are alternate Night and Day
How **Sultan** after **Sultan** with his pomp
Abade gis destined hour, and went his way.¹¹⁰

1-metafora “ko`hne rabat” ni E.FitzJerald tarjimada badiiy tarjima qilish usuli bilan “**battered Karavenseraï**” tarzida, 2-metafora “Varamgahe ablaghe sobh-o shamst” (“kun va tunning oromgohi”) ni so`zma so`z tarjima orqali ifodalagan. 3-metafora “bazm” (“dunyo”) tarjimada tushirib qoldirilgan, 4-5-metafora “**sad Jamshid**” va “**sad Bahram**” larni yuzlab kuchli hukmdorlar ma'nosini o'z ichiga olgan “**Sultan after Sultan**” birikmasi orqali ifodalagan.

¹⁰⁸ Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi,A.“Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam's Quatrains”, Theory and Practice in Language Studies, Vol. 1, No. 9, p. 1126

¹⁰⁹ “Umar Xayyom/Ruboiylar” tuz. Shomammedov Sh “Sharq” nashriyoti. Toshkent – 2003. 28-bet

¹¹⁰ Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi,A.“Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam's Quatrains”, Theory and Practice in Language Studies, Vol. 1, No. 9, p. 1124-25

A.J.Arberri tarjimasi

This **ancient hostelry**, which those
May call the World, have the knack,
A stable is where the poor hack
Of dawn and sunset takes repose
Here **Jamshid** once high revel kept
But know the feast is bare of him:
Bahram here hunted at his whim,
And here at last forever slept.¹¹¹

Yuqorida ko`rish mumkinki, A.J.Arberri tarjimasi **abba abba** vaznidagi 2 banddan iborat. “**Ko`hna rabat**” metaforasi badiiy tarjimada “**ancient hostelry**” birikmasi orqali, “**varamgahe ablaghe sobh-o shamst**” esa “**stable**” o`xshatmasi bilan ifodalangan. FitzJeralddan farqli, ruboiy aslidagi Jamshid va Bahram atoqli otlari saqlanib qolingan.

Ruboiyning asli:

Xorshid kamande sobh bar bam fekan
Key Xosrav ro`ze badeh dar jam fekan
Mey xor ke **monadi sahar xizan**
Avaze oshrebu dar ayyam fekan.¹¹²

O`zbekcha tarjimasi:

Oftob tong kamardin tushirdi tomga
Kunduz shohi muhra solmishdur jomga
May ich, ishq nidosi sahar paytida
“Ishrabu...” ovozin yoydi ayyomga.¹¹³

Quyida FitzJerald va A.J.Arberri tarjimalarini asl forsha ruboiy bilan qiyoslaymiz va bu ikki mohir tarjimonning xayyomona ohangni yetkazib berishda foydalangan obrazli tasviriy vositalar o`rtasidagi farqni kuzatamiz:

¹¹¹ Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi, A. “Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam’s Quatrains”, Theory and Practice in Language Studies, Vol. 1, No. 9, p. 1124-25

¹¹² Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi, A. “Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam’s Quatrains”, Theory and Practice in Language Studies, Vol. 1, No. 9, p. 1124

¹¹³ “Umar Xayyom/Ruboiylar” tuz. Shomuhammedov Sh “Sharq” nashriyoti. Toshkent – 2003. 66-bet

FitzJerald tarjimasi:

Awake! For Morning in the bowl of Night
Has Flung the stone that puts the stars to flight
And Lo! **The hunter of the East** has caught
The Sultan's turret in a noose of light.

1-sintaktik metafora “**Xorshid kamande sobh bar bam fekand**”(“**tong otishi**”)ni E.FitzJerald tarjimada bandning oxirida keltirib, forsiy variantdagi metaforik ifodaning ma'nosini saqlab qolgan. Keyingi qatordagi metafora “**monadi sahar xizan**” (“**quyosh**”) ni ingliz tilidagi boshqa betakror metafora “the hunter of the East” va “noose of light” bilan almashtirgan.

A.J.Arberri tarjimasi:

The Sun cast the noose of morn
Athwart the roof-top of the world,
The emperor of the day has hurled
His bed, our goblet to adorn
Drink wine:for **at first dawn's rays**
The proclamation of desire
Rang through the universe entire,
And bade men drink through days

Yuqorida ko'rish mumkinki, A.J.Arberri tarjimasida “**Xorshid kamande sobh bar bam fekand**” metaforasini badiiy tarjima qilish va izohlash orqali, “**monadi sahar xizan**” o'xshatmasi esa metaforani tushirib qoldirib, uning ma'nosiga izoh berish bilan ifodalangan. FitzJeralddan farqli, ruboiy aslidagi ma'no to'liq saqlab qolinmagan va shakldagi ixchamlik ham yo'qolgan. Biroq ikkala tarjimada ham **personification** (jonlantirish) san'atini qo'llash orqali ruboiy jozibadorligi saqlangan.

She'riyatni tarjima qilish shaxsiy izlarni yaratish jarayonidir deb atash mumkin. Tarjimonning vazifasi boshqa bir tilda aslidek o'xshash adabiy matn yaratishdir, shuning uchun tarjimon avvalo, yozuvchi, so'ngra kitobxon tarzida emas, balki dastlab kitobxon bo'lib, so'ngra yozuvchiga aylanadi. She'riy

tarjimada shakl va mazmun uyg'unligi va she'riy va musiqiy vositalarning muhimligi sababli badiiy "ovoz" ni ifodalash murakkabdir. Quyida Xayyom ruboiylarini tarjima qilishda shu kabi o'zgarishga uchragan FitzJerald va Arberri tarjimalarini tahlil qilamiz:

Ruboiyning asli:

Ey dust bia ta g`ame farad naxorim
Vin yek dame omr g`animat shemorim
Farda ke azin **deyr kohan** dar gozarim
Ba haft hezar salegan hamsafarim.¹¹⁴

O'zbekcha tarjimasi:

Ey do'st, xalos bo'laylik ertalik g`amdan
Naqd deb bahra olaylik g`animat damdan
Yetmish ming yilgilar bilan tengmizda
Ertaga ketsak bu keksa olamdan.¹¹⁵

Xayyom ruboiyning 2-satrida bugungi kundan zavqlanib qolish kerakligini ta'kidlaydi. Ruboiy mazmunidan "Vaqting ketdi – naqding ketdi" maqolini anglash mumkin. Z.Behtashning ta'kidlashicha:

"Islomiy "carpe diem" tushunchasiga ko'ra, foniyl dunyo uchun xuddi abadiyl yashaydigandek mehnat qilishimiz kerak, boqiy dunyo uchun xuddi ertaga hayotdan ko'z yumadigandek bajarayotgan amallarimizga e'tibor berishimiz kerak"¹¹⁶.

Bu ruboiyning ingliz tilidagi tarjimasida badiiy "ovoz" jihatidan yuzaga kelgan o'zgarishlarni ko'rish mumkin:

FitzJerald tarjimasi:

Ah! My beloved, fill the Cup that clears
To-day of Past regrets and Future fears

¹¹⁴ Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi, A. "Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam's Quatrains", Theory and Practice in Language Studies, Vol. 1, No. 9, p. 1127

¹¹⁵ "Umar Xayyom/Ruboiylar" tuz. Shomuhammedov Sh "Sharq" nashriyoti. Toshkent – 2003. 93-bet

¹¹⁶ Zare-Behtash, E. (1994). Fitzgerald's Rubaiyat: a Victorian Invention. Doctoral Dissertation, Australian National University, Canberra, Australia p:48

To-morrow? – Why, To-morrow I may be

Myself with **Yesterday's Seven Thousand Years.**

Xayyom ruboiysida vaqtdan unumli va samarali foydalanishga undasa, FitzJerald o'z zamondoshlarining dunyoqarashidan kelib chiqib, kecha va ertangi kunning muammolaridan forig' bo'lishda to'ldirilgan qadah yordam berishiga urg'u bergan. Forsiy ruboiydagi **“deir-e kohan”** metaforasi borliqni tasvirlash uchun ishlatilgan. Bu so'zforschada biri kirish uchun, boshqasi chiqish uchun mo'ljallangan ikki eshikli joy ma'nosini anglatadi. Xayyom ruboiylarida tez-tez uchraydigan bu so'z butun olam ma'nosida qo'llangan. “Eski, ko'hna” ma'nosidagi **“kohan”** so'zi orqali esa Xayyom yetti ming yilga teng odamlar yashab o'tgan odamlar makoni bo'lmish boqiy dunyo mazmunini ifodalashga harakat qilgan. **“Ba haft hezar salegan hamsafarim”** birikmasi orqali Xayyom hayotdan ko'z yumgan inson bu dunyo eshuklarini ham tark etishi, hayot o'tkinchiligi sababli ertaga u ham shu yetmish ming yilga teng odamlar kabi hayotdan ko'z yumishi mumkinligini tasvirlaydi. FitzJerald tarjimada bu mazmunni **“Yesterday's Seven Thousand Years”** metonimiyasi orqali ifodalab bergan. Ammo asl ruboiydagi badiiy ovoz tarjimada to'liq yetkazib berila olmagan.

Arberri tarjimasi:

Come, let us not consume with care
For what to-morrow may portend,
But let us count for gain, my friend,
The ready moment that we share.
For in the morn when we are sped
From Earth's most ancient hostelry
We join the immortal company
Of those ten thousand ages dead

A.J.Arberri “keksa olam” ma'nosida **“ancient hostelry”** birikmasini qo'llagan. **“Ba haft hezar salegan hamsafarim”** metaforasini esa badiiy tarjimada ma'no qo'shish orqali **“those then thousand ages dead”** ifodasi bilan

almashtirgan. Mutarjim ikki banddan iborat a-b-a-b va a-b-b-a qofiyali ruboiy yordamida Xayyom tasvirlaganidek, bugungi kunni samarali o`tkazish ertangi kunning poydevori ekanini ifodalab bera olgan. Arberri o`z tarjimasi orqali Xayyom ruboiysidagi mohiyatni kitobxonlarga tushunarliroq qilib yetkazib bergan.¹¹⁷

Badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta'sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo'ladi. Quyidagi ruboiyda ham forsiy jozibador leksik birliklarning ingliz tilidagi o`zgarishlarini kuzatish mumkin.

Ruboiyning asli:

Afsus ke **namehe javani** tay shod
Van **taze bahar zendegani day shod**
An **morg`e tarab** ke name bud shabab
Faryad ke nadanam kaya mad kay shod

O`zbekcha tarjimasi:

Afsuski, yigitlik mavsumi bitdi
Ko`klam o`tib ketdi, qish kelib yetdi
Yoshlik deb atalgan u sevinch qushi
Bilmadim, qachonlar keldiyu ketdi.

Bu ruboiyning aslida 4 ta metafora qo`llangan. Tarjima jarayonida bu metaforalar qisman saqlanib qolingan va ingliz tilida mavjud boshqa leksik vositalar orqali ifodalangan.

FitzJerald tarjimasi:

Alas, **that Spring should vanish** with the Rose!
That **youth's sweet-scented Manuscript** should close!
The Nightingale that in the branches sang,
Ah, whence, and wither flown again, who knows!

¹¹⁷ Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi, A. "Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam's Quatrains", Theory and Practice in Language Studies, Vol. 1, No. 9, p. 1127-28

Forschada “yoshlik kitobi” ma’nosini beruvchi 1-metafora “**namehe javani**” ni E.FitzJerald tarjimada badiiy tarjima qilish usuli bilan “**Youth’s sweet-scented Manuscript**” tarzida, 2-metafora “**taze bahar zindagani**” (“umrning erta bahori”) ni “**spring**” orqali ifodalagan. 3-metafora “**day**” (forsiy kalendarda qishning birinchi oyi) tarjimada tushirib qoldirilgan, 4-metafora “**morg’e tarab**” soʻzi baxt, muhabbat kuychisi ramziga aylangan “**Nightingale**” oʻxshatishi orqali ifodalangan.

Arberri tarjimasi:

Alas, that at the last must close
The tender **tale of boyhood’s day**
And **life’s delightful fragile May**
Lie buried in December’s snows.
I can not tell, alas, in truth
However dwelt among us men
However fluttered from our ken.
Sweet,elusive song bird, youth.

Arberri tarjimasida badiiy tarjima qilish orqali tanlangan soʻzlar asl forsiy ruboiydagi soʻzlardan anglashiladigan ma’noga yaqin. “**Namehe javani**” metaforasi ma’nosi kengaytirilgan “**tale of boyhood’s day**” birikmasi bilan, “**taze bahar**” esa “**delightful fragile May**” leksik vositasi bilan almashtirilgan. “**Day**” soʻzi ingliz kitobxonlari notanish hisoblangani uchun tarjimada “**December**” soʻzi bilan izohlangan. 4-metafora esa badiiy tarjima qilish orqali kitobxonga yetkazib berilgan.

Leksik obrazli vositalarning she’riy matnning hissiy ta’sirchanligini oshirishi oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Quyidagi ruboiy va uning ingliz tilidagi tarjimasida ham shu betakror soʻz san’atining namoyishini kuzatish mumkin:

Ruboiyning asli:

Emshab may jam yek mani hakam kard
Hod ra bedo jam may g`ani hakam kard

Avval **se talaghe aghl o din** khakam goft

Pas **dohtare raz ra be zani hakam kard.**

O`zbekcha tarjimasi:

Bir botmon bodani bir jomga solsam

Ikki jom may birla boy bo`la qolsam.

Avval aqlu dinim qilib uchtaloq,

So`ng tok qiziga uylanib olsam.

Bu ruboiyni ajoyib matematik she`r tarzida izohlash mumkin. **“Yek, do, se”** raqamlari hosil qilingan so`z o`yini va mohirlik bilan tanlangan leksik birliklar ruboiyning uslubiy bo`yoqdorligini boyitgan.

FitzJerald tarjimasi:

You know, my Friends, how long since in my house

For a new marriage I did make Carouse

Divorced old barren reason from my Bed

And took the Daughter of the Vine to Spouse.

FitzJerald o`z tarjimasida ixchamlik va aniqlikka e`tibor qaratgan. Ammo uning ruboiysida raqamlar o`yini e`tibordan chetda qoldirilgan. Shu to`rt satrda forsiy matnda anglashiladigan mazmunning qisqacha mohiyatini tushunib olish mumkin. **“Divorced old barren reason”** birikmasidagi jonlantirish va **“took the daughter of the vine to spouse”** dagi betakror metafora tarjimaning ta`sirchanligini kuchaytirgan.

Arberri tarjimasi:

Now with a glass one measure high

Grief I will slay, old foe of mine

Having quaffed two points of wine,

Count no man half as rich as I.

First, in divorce thrice over cried

Reason and faith I will put away,

Then take, to crown my happy day,

The daughter of grape for bride.

Tarjimon sifatida Arberri forsiy asliyatni saqlab qolishda ko`plab uslubiy vositalardan foydalangan. Arberrining ushbu ruboiy tarjimasi FitzJeraldning tarjimasiga o`xshab ketadi, biroq so`zlarning badiiy bo`yoqdorligi forsha matndagi kabi murakkab birikmalar orqali ifodalangan va ikki banddan iboratligi sababli asl mohiyat tarjimada ham saqlangan. Xayyom ruboiylari ba`zida tarjimada shunchaki ruboiyning qisqacha mazmunini berish bilan chegaralangan. Masalan, quyidagi ruboiyda ham shu holatni kuzatish mumkin:

Ruboiyning asli:

Hengame sabuh ay **sanam** farroh pay
Bar saz taraneh-o pish avar may
Kafkand behak sad hezaran **jam-o kay**
In mamadan **Tir** mah o raftan **Day**.

O`zbekcha tarjimasi:

Bor yoqning zohiri – yuzini bildim
Baland-past ildizi – izini bildim
Mansub deb mastlikning o`zim bilmasam
Bilimim xayf ketsin, o`zini bildim.

FitzJerald qalamiga mansub tarjima butkul boshqa she`r. Bu holat FitzJerald tarjimalari to`plamining boshqa nashrlarida ham bir necha bor uchraydi.

For “Is” and “Is-Not” dough with rule and line
And, “Up-And-Down” without, I could define,
I yet in all I only cared to know
Was never deep in anything, but Wine!

Arberri tarjimasi:

‘Tis time to quaff the morning cup:
My lucky-footed **lad**, arise!
Play music to the rosy skies
And bring the bowl, and fill it up.
A hundred thousand such as those
Farmed tyrants swayed the earth

In **burning June** brought to birth

And buried by **December's snows**.

Tarjimada Arberri 1-metaforani noto'g'ri ma'nodagi so'z bilan almashtirgan. "**Sanam**" so'zi "birovning eng yaxshi ko'rgan kishisi, go'zal ayol" ma'nosini bildiradi. Arberri esa ingliz tilidagi "bola,o'spirin" ma'nosidagi "**lad**" murojaatini "**sanam**" so'zi o'rnida noto'g'ri qo'llagan. "**Jam-o kay**" (ikki fors shohi Jamshid va Kayxusrav) birikmasi o'rnida esa shu mazmunni ifodalovchi "**tyrant**" o'xshatishi ishlatilgan. "**Tir**" so'zi "**burning June**" va "**Day**" so'zi esa "**December's snows**" deb tarjima qilish orqali ifodalangan. Tarjimada Arberri 1-metaforani noto'g'ri ma'nodagi so'z bilan almashtirgan. "**Sanam**" so'zi "birovning eng yaxshi ko'rgan kishisi, go'zal ayol" ma'nosini bildiradi. Arberri esa ingliz tilidagi "bola,o'spirin" ma'nosidagi "**lad**" murojaatini "**sanam**" so'zi o'rnida noto'g'ri qo'llagan. "**Jam-o kay**" (ikki fors shohi Jamshid va Kayxusrav) birikmasi o'rnida esa shu mazmunni ifodalovchi "**tyrant**" o'xshatishi ishlatilgan. "**Tir**" so'zi "**burning June**" va "**Day**" so'zi esa "**December's snows**" deb tarjima qilish orqali ifodalangan.¹¹⁸

Umar Xayyom ruboiylarining tarjimasida mutarjimlarning fonetik vositalaridan ham foydalanib tarjimaning yanada ohangdorligiga, hissiy ta'sirchanligiga erishilganligini kuzatish mumkin. Zero, tilning material tomoni tovushlar bo'lganligi uchun tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Nutqdagi fonetik vositalar ham ba'zi o'rinlarda uslub yaratuvchi vositaga aylanishi mumkin. Odatda, badiiy adabiyotda ko'proq lirik asarlarda tovushlar, urg'u va ohang hissiy ta'sirchanlikni oshirishda muhim stilistik vosita bo'ladi. Shu sababli Xayyom ruboiylarining tarjimasida ham emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilikka fonetik tasviriy vositalarning o'ni muhim. Fonetik vositalar ichida eng keng tarqalganlaridan biri bu undosh tovushlar takrori hisoblanmish **alliteratsiya**dir. Ushbu vositani qo'llash orqali shoir she'rning ohangdorligi va mayinligini yanada

¹¹⁸ Zohdi M., Rostami A.A. Saeedi, A. "Translating Metaphor and Simile from Persian to English: A Case Study of Khayyam's Quatrains", *Theory and Practice in Language Studies*, Vol. 1, No. 9, pp. 1122-1138

oshiradi. Umar Xayyom ruboiylarining tarjimalarida ham tarjimonlar iloji boricha ko'proq fonetik vositalardan foydalanishga uringanlar. Masalan, Richard Le Gallien, Edvard Gern-Allen, Artur Talbot va Edvard Vinfild kabi tarjimonlar Xayyom ruboiylari tarjimasida ham bu fonetik vositadan samarali foydalangan:

Ah! **Drink, drink, drink**, each little **drop** of **drain**¹¹⁹

Ushbu misrada “d” tovushining takrori orqali “ichmoq, tomchi, oqim” so'zlariga urg'u berilib, to'rtlik ma'nosi yanada kuchaytirilgan. Yoki yana bir boshqa misrani tahlil qilsak:

Drink wine, **red** wine, **red** as the **rose** is **red**¹²⁰

Ushbu misrada ham “r” tovushining takrori orqali sharob rangining qizilligi, atirgul kabi alvon rangiga urg'u berilgan. Demak, ko'rinib turibdiki, alliteratsiya ya'ni undosh tovushlar takrori ma'noni kuchaytirish hamda she'rga ohangdorlik va musiqiylik baxsh etish uchun ximat qilar ekan.

Alliteratsiya undosh tovushlar takrori bo'lsa, unli tovushlar takrori **assonance** (ohangdoshlik) deb ataladi. Ushbu fonetik vosita ham boshqalari kabi nutqni yanada ohangliroq, go'zalroq va nafisroq qilish uchun qo'llaniladi. Umar Xayyom ruboiylarining ingliz tilidagi tarjimalarida ham ushbu vositadan unumli foydalanilgan. Masalan, Artur Talbot qalamiga mansub she'riy parchada quyidagi baytlar keltirilgan:

If **in** the end of **things** thou must **be** naught

Yuqoridagi misrada “i”tovushining takrorini uchratishimiz mumkin. Edvard Gern-Allen tarjimalaridan birida esa “o” tovushining takrori orqali ohangdorlik kuchaytirilib, she'r yanada nafislashgan.

It is **morning**: let us **for** a **moment** inhale **rose-coloured** wine

Fonetik vositalar ichida eng ko'p uchraydigani mavjudki, u ichki qofiyadir. Bunda qofiyadosh so'zlar odatdagidek misra so'ngida emas balki misra ichida uchraydi. Ichki qofiya she'rni yanada nafisroq qilib, musiqiyligini oshiradi. Umar Xayyom she'riyati tarjimonlari Richard Le Gallien, Edvard Vinfild va boshqalar

¹¹⁹ Galliene R. “Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations”, New York, 1897.p 100

¹²⁰ The same source. p 107

o'z tarjimalarida ichki qofiyadan unumli foydalanganlar. Keling, buni misollar orqali ko'rib o'tamiz:

For have you **thought** how **short** in time is ours?

Ushbu misrada “thought” hamda “short” so'zlari qofiyadosh bo'lib, ruboiy ma'nosini va ohangini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

From God's own hand this earthly vessel came,

He shaped it thus be it thus for **fame** or **shame**.

Yuqorida misralarda esa “fame” hamda “shame” so'zlari ichki qofiyani hosil qilib, she'ning musiqiyiligini yanada oshirgan.

Today is thine to spend, but not tomorrow,

Counting for **morrows** breedeth naught but **sorrow**.

Bu yerda esa ham ichki, ham tashqi qofiya ishlatilgan bo'lib, “morrow” hamda “sorrow” so'zlari o'zaro ichki qofiyadosh hisoblanadi va to'rtlikka alohida musiqiylik baxsh etadi.

Tasviriy vositalar ichida alohida o'rin egallovchi yana bir guruh vositalar sintaktik tasviriy vositalar sanaladi. Bunda asosiy e'tibor gap, uning qurilishi va tarkibiga, so'zlar ketma-ketligi yoki punktuatsiyaga qaratiladi. Sintaktik tasviriy vositalar bir qancha bo'lib, ular sirasiga ritorik so'roq gap, takror, inversiya, ellipsiya va boshqalarni kiritish mumkin. Umar Xayyom ruboiylarining ingliz tilidagi tarjimalarini tahlil qilar ekanmiz, bir qancha stilistik vositalar ishlatilganining guvohi bo'ldik. Masalan, Richard Le Gallien tarjimasida uchratish mumkin:

Would you seek beauty, seek it **underground**;

Would you find strength—the strong are **underground**.

And **would you** next year seek my love and me,

Who knows but you must seek us –**underground**.

Ushbu parchada so'z takroridan unumli foydalanilgan. So'z takrorining ham bir necha turlari mavjud bo'lib, bu ruboiyda anafora ya'ni gap yoki qator boshida ishlatiladigan so'z takroridan foydalangan. Bunda shoirning maqsadi takroriy foydalanilgan so'zga urg'u berib, ma'noni yanada kuchaytirishdir.

So I be written in the Book of Love,

I have no care about that book above.

Erase my name or write it as you please—

So I be written in the Book of Love.

Ushbu to'rtlikda foydalanilgan takrorlash turi esa **“frame repetition”** ya'ni qoliqli takror deb atalib, bunda sintaktik birlikning boshi va oxiri bir xil so'z, so'z birikmasi yoki gap bilan boshlanib tugaydi. Bizning misolimizda ushbu ruboiy **“So I be written in the Book of Love”** gapi bilan boshlangan hamda ushbu gap bilan tugatilgan. Ushbu takrorlash turi asosan she'riyatda qo'llanilib, ma'lum bir so'z yoki gapga alohida urg'u beradi va muallif kitobxon e'tiborini ana shu urg'u berilgan birikmaga qaratishni maqsad qiladi.

Sintaktik tasviriyy vositalar ichida eng ko'p uchraydiganlaridan yana biri bu ritorik so'roq gap bo'lib, u savol ko'rinishidagi darak gap sanaladi. Richard Le Gallien to'rtliklardan birida shunday yozgan:

Shall I not bid him welcome like his brother,

Life I have feared not, shall I then fear death?

Ushbu misralarda keltirilgan **“shall I then fear death”** savoli ritorik gap bo'lib, “o'limdan qo'rqmayman” degan mazmun anglashiladi.

Yana shunday bir sintaktik tasviriyy vosita mavjudki, bunda ma'lum bir bog'lovchi takroriy tarzda qo'llaniladi va bu bog'lovchilarning maxsus qo'llanilishi hisoblanadi. Edvard Gern-Allen Xayyom ruboiylari tarjimasidan birida shunday misralarni keltirgan:

Suddenly one of the pots cried out aggressively:

Where are the pot mker, **and** the pot buyer, **and** the pot seller?

Bu yerda “va” ma'nosidagi “and” bog'lovchisi takror holda keltirilgan. Artur Talbot esa ushbu ruboiyni quyidagi tarzda tarjima qilib, “va” bog'lovchisidan emas, “yoki” bog'lovchisidan foydalangan.

And suddenly one pot, aggressive, cried,

Who makes, **or** buys, **or** sells, us earthen folk?

She'riyatda keng uchraydigan sintaktik tasviriylar vositalardan yana biri bu inversiya hodisasi bo'lib, u gap bo'laklarining o'rin almashinishi bilan ifodalanadi. Bunda gap boshida kelgan gap bo'lagiga urg'u tushadi. Edvard Vinfild tarjimasida shunday misralarning guvohi bo'lishimiz mumkin:

When I am dead, with wine my body lave,
For obit chant a bacchanalian slave,
And, if you need me at the day of doom,
Beneath the tavern threshold seek my grave.

Dastlabki misrada "lave my body with wine" sintaktik jihatdan to'g'ri bo'lgan gap o'rnida "with wine my body lave" deyilgan, ya'ni "sharob bilan" birikmasiga alohida urg'u berilib, ma'nosi kuchaytirilgan. Oxirgi qatorda esa "beneath the tavern threshold" o'rin-payt holi gap oxirida emas gap boshida keltirilib, "mayxona ostonasi" birikmasi urg'uni olgan.

Navbatdagi sintaktik tasviriylar vosita turi **ellipsiya**, ya'ni gap bo'laklarining tushirib qoldirilishidir. Ma'lumki hayajonli nutq kamchilikka ega bo'ladi va to'liq bo'lmaydi, shu sababli ellipsiya his-hayajonli nutqni ifodalab, ma'noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mercy was made for sinners—be not sad.¹²¹

Ushbu misrada "**do**" yordamchi so'zi tushirib qoldirilib, "do not be sad" o'rniga "be not sad" deyilgan.

Uyushiq bo'laklarni adabiyotda qo'llash san'ati ham mavjud bo'lib, u **enumeration** (uyushiq bo'laklarni birga qo'llash) nomi bilan ma'lum. Ushbu sintaktik tasviriylar vosita ma'lum bir gap bo'lagiga taaluqli so'zlarni uyushtirish orqali ma'noni kuchaytirib, she'rga ohangdorlik baxsh etadi.

Edvard Gern-Allen tomonidan tarjima qilingan bir ruboiyda quyidagi uyushiq bo'laklar qo'llanilgan:

A true lover throughout **the month**, and **the year**, and **night** and **day**

Bu yerda vaqt bildiruvchi so'zlar uyushib kelib, haqqoniy sevgan inson uchun kun ham yil ham barobar degandek gap na'nosini kuchaytirgan. Ruboiy

¹²¹ Whinfield E. "The Quatrains of Omar Khayyam", London – 1883. Quatrain 46, p:82

tarjimasida uyushgan birliklar yordamida ifodalilik birin-ketin kuchaytirib yuborilgan va ma'noviy gradatsiya yuzaga kelgan.

Yuqorida ko'rib o'tilgan sintaktik tasviriy vositalar bilan bir qatorda leksik-sintaktik vositalardan ham unumli foydalanilgan. Ular orasida eng keng qo'llanilgan vosita **antithesis** (ta'zod) bo'lib, u bir-biriga qarama-qarshi ma'nodagi so'zlarni qo'llash bilan bog'liq san'at turi hisoblanadi. Turli tarjimonlar asarlaridan keltirilgan misollar orqali buni tahlil qilamiz:

Not one is on the **dry land**, all are in the **water**,

One is **awake**: the others are **asleep**;¹²²

Ushbu baytlarda "dry land" hamda "water" va "awake" hamda "asleep" so'zlari bir-biriga ma'no jihatdan qarama-qarshi qo'yilgan bo'lib, quruqlik hamda suv va uyg'oq hamda uyqudagi so'zlariga urg'u berish orqali ma'no yanada kuchaytirilgan.

Richard Le Gallien to'rtliklaridan birida esa quyidagi misralarni keltirgan:

Tis written clear within the Book of Fate—

The litte always shall oppress **the great**.

Bu yerda "kichik" va "katta" ma'nolaridagi "little-great" so'zlari bir-biriga qarama-qarshi ma'noda kelgan va ruboiyga yanada nafislik baxsh etgan. Demak, she'riy asarlarning yana bir qirrasida ular obrazli uslubiy vositalarning, ko'chma ma'noli so'zlarning ko'p ishlatilishidir. Nazmda obrazli uslubiy vositalarning ko'plab ishlatilishi undagi ifoda siqqligi bilan ham bog'liqdir. Chunki uslubiy vositalar yordami bilan kamroq so'z sarflab, ko'proq ta'sir o'tkazishga erishiladi. Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: «Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi.»¹²³ Adabiy asarning musiqa, rassomchilik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning

¹²² Allen E-H. "The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes", Winds Press, 1973, Quatrain 48, p:85

¹²³ «Badiiy matnning lissoniy tahlili» O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun ma'ruzlar matni. Nukus-2002.

ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasi bilan yaratilishida ko'rinadi.

3.2. Ruboiyot tarjimasida milliy kolorit ifodasi

Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash – badiiy tarjimaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, tarixan tashkil topgan, madaniyati, tili, hududi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarning umumiyliги asosida vujudga kelgan kishilar guruhiga millat deyiladi. Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir. Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va hokazolar. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda milliy kolorit deyiladi. Kolorit – lotincha kolor, italyancha kolorito so'zidan olingan bo'lib, rang, bo'yoq, manzara ma'nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi ko'zda tutiladi.¹²⁴

Umar Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjimasida ham milliy kolorit ifodasi muhim o'ringa ega. Chunki asar yozilgan tilni chuqur va mukammal bilmay, muhit va davrni o'rganmay, muallif tasvirlagan xalqning urf-odatlari bilan yaqindan tanishmay turib badiiy barkamol tarjima asari yaratish amri mahol. Xayyom "Ruboiyot" idek durdona asarni tarjima qilishga qo'l urgan har bir ingliz tarjimoni ham ana shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar – realiyalar, boshqacha aytganda, milliy xos so'zlarni tarjimada qo'llashga katta e'tibor qaratgan. Edvard FitzJerald, Edvard Vinfild, Richard Le Gallien, Artur Talbot kabi tarjimonlarning mashhur she'riy tarjimalarida ham va Jastin Hantli

¹²⁴ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, 1983. 192-бет.

Makkarti va Edvard Gern-Allen kabilarning qalamiga mansub nasriy tarjimalarda ham badiiy asardagi milliy xususiyatlarni mohirona tasvirlab berishga harakat qilgan. Bu tarjimonlar asosan miliy xos soʻzlarni tarjima qilishda transliteratsiya usulidan foydalangan. Masalan, asl manbadagi sharqonalikni saqlash va sheʼriy tarjimaga hissiy boʻyoqdorlik berish maqsadida “bulbul”, “darvish”, “soqiy” “Qurʼon”, kabi forsiy soʻzlar ingliz tiliga bevosita tarjima qilinib oʻtirmasdan, transliteratsiya orqali ifodalangan.

Buni Edvard Vinfieldning quyidagi sheʼriy tarjimasida ham uchratish mumkin:

Thy body is a tent, where harbourage

The Sultan spirit takes for one brief age;

When he departs, comes the tent-pitcher death,

Strikes it, and onward moves, another stage.¹²⁵

E.Vinfilddan oldin va keyin Xayyom ruboiylari tarjimasi bilan shugʻullangan ingliz tarjimonlarining koʻpchiligi “Sultan” soʻzi bilan birga “king” soʻzidan ham baravar foydalangan.

Yoki 1897-yilgi parafraza usuliga tayanilgan toʻplami bilan Xayyom ruboiylarining ingliz tilga tarjimalarini boyitgan Richard Le Gallien ham milliy ahamiyatga ega atoqli otlardan yetarlicha foydalangan. Buni ushbu ruboiyda tahlil qilish mumkin:

This tavern wisdom was not made for all,

The congregation of the great is small,

Drink not with every wine-flown **Hatim-Tai**,

Nor lift thy cup to every noisy call.

Nasriy tarjima orqali Xayyomning forsiy ruboiylarini ingliz kitobxonlariga yetkazib bergan Edvard Gern-Allen toʻplamida ham milliy kolorit ifodasini kuzatish mumkin. Jumladan:

The Qur'an, which men call the Supreme Word,

they read at intervals but not continually,

¹²⁵ Whinfield E. “The Quatrains of Omar Khayyam”, London – 1883. Quatrain 91, p:156

but on the lines upon the goblet a text is engraved
which they read at all times and in all places.¹²⁶

She'riy tarjimada milliy - madaniy elementlar juda ham muhim. Xorijiy tilning so'z boyligi, grammatikasidan xabardor bo'lishning o'zi kishini zo'r tarjimonga aylantira olmaydi. Mutaxassis o'z madaniyati, shuningdek tarjima qilmoqchi bo'lgan asar mansub bo'lgan xalq madaniyati bilan tanish bo'lmog'i kerak. Shu orqali ikki xalq madaniyati o'rtasida ko'prik o'rnatishi mumkin. Tarjimon R.L.Gallien ham tarjimada ko'plab sharqona so'zlarni keltirish orqali sharq madaniyatini g'arblik zamondoshlariga tanishtirishga urinadi:

O sufi, dervish, subtle kalandar,

How every thirsty all your questions are!

I cannot answer them unless I lean

Upon the perfumed lip of yonder jar.¹²⁷

Madaniyat elementlarini tarjima orqali boshqa til muhitiga uzatish jarayoni murakkab masala. Madaniyat kundalik turmush tajribalarining murakkab to'plami, u tarix, ijtimoiy tizim, din, kundalik urf-odatlar va an'analarni o'z ichiga oladi.¹²⁸

E.Nida milliy-tasviriy vositalarni 5 guruhga turkumlaydi:

1. Moddiy, kunda ishlatiladigan buyumlar
2. Ekologik, joy va ob-havodagi farqlar
3. Ijtimoiy, ijtimoiy tashkilotlarga taaluqli va ularning san'at va adabiyot, tarix fanlaridagi tasviri
4. Diniy
5. Lingvistik – bu guruhdagi elementlar qolgan 4 guruhga mansub vositalarni ifodalashga xizmat qiladi.¹²⁹

P.Nyumark fikriga ko'ra, madaniyat – bu ma'lum bir jamiyatga taaluqli turmush tarzining muayyan tasviridir va bu jamiyat tilni shularni tasvirlash

¹²⁶ Allen E-H. "The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes", Winds Press, 1973 p:87

¹²⁷ Gallien e R. "Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations", New York, 1897 p: 96

¹²⁸ G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. "Tarjima nazariyasi", Toshkent-2012. 24-32 betlar

¹²⁹ Nida, E.A. principles of correspondence in: L. Venuti. The Translation Studies Reader. London & New York: Routledge. c(1964). pp.126-140

vositasi sifatida ishlatadi.¹³⁰ Shuningdek, B.Hatim va I.Mason aytishicha, she'riyat aloqaning emas shaxsning o'zini aks ettirish jarayonidir.¹³¹ Umuman olganda she'riyatda har bir so'z bir ramziy ma'noga ega va bu kishini o'rab turgan atrof-muhit yoki tajribaning bir bo'lagi bo'lib namoyish bo'ladi. Qisqasi, she'riy tarjima mohir tarjimondan milliy-madaniy tasviriyl vositalardan zo'r xabardor bo'lish orqaligina shu sohada kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etishga imkon beradi.

Yuqoridagi bir necha tarjimonlar tomonidan qilingan Xayyom ruboiylari tarjimasidan kuzatish mumkinki, tarjimada o'z ifodasini topgan realiyalarni bir nechta tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin:

- ❖ Xalqning madaniyati, kundalik turmush tarzidan olingan xos so'zlarning ishlatilishi

- ❖ Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi

- ❖ Jug'rofiy nomlar

- ❖ Diniy istilohlar, tushunchalar, marosimlarning tarjimada berilishi

Bu realiyalar ruboiylardagi mahalliy sharoit, urf-odat va joyga xos turmush tarzi va til xususiyatlarini aks ettirishga xizmat qilgan. Har bir tarjimon o'z tarjimasida yuqoridagi realiyalarning ayrimlari yoki barchasidan foydalangan.

1-guruhga mansub milliy xos so'zlar ifodasini Edvard FitzJerald, Edvard Vinfield, Richard Le Gallien va Edvard Gern-Allenning ruboiylar tarjimasida ko'plab uchratish mumkin.

Edvard FitzJerald "dervish", "ferrash", "hour", "Mah", "hubbub" kabi realiyalardan o'z ruboiylarida keng foydalangan:

The Sultan rises, and the dark **Ferrash**

Strikes, and prepares it for another Guest.

Ushbu satrlarda ham:

Taking all shapes from **Mah to Mahi**, and

¹³⁰ Newmark, P. A Textbook of translation. Prenticehall: Singapore. (1998). p:138

¹³¹ Hatim, B., & Mason, I. "Discourse & The Translator". Longman: London & New York, (1990). p:15

They change and perish all – but he remains.

Bu ruboiydagi “mah” soʻzi “baliq” maʼnosini, “Mahi” esa “oy” maʼnosini bildiradi. Bu yerda fors afsonalariga koʻra, baliq va oy, yaʼni suv va osmon oʻrtasida bir buqa yerni oʻz shohlaridan birida koʻtarib turishi nazarda tutilgan.¹³²

Yoki:

And in some corner of the **Hubbub** coucht,
Make game of that which makes as much of Thee.

Edvard Vinfild ham oʻz tarjimasini milliy xos soʻzlar bilan boyitish orqali, ruboiylardagi milliylikni taʼminlagan. “Sultan”, “shaikh”, “bulbul”, “Caravanserai”, “dervish”, “houri” kabi realiyalar shular jumlasidan.

The Bulbul to the garden winged his way,
Viewed lily cups, and roses smiling gay,
Cried in ecstatic notes, "O live your life,
You never will re-live this fleeting day."¹³³

E.Vinfilddan oldin va keyin Xayyom rubooylari tarjimasi bilan shugʻullangan ingliz tarjimonlarining koʻpchiligi “the nightingale” ifodasidan foydalangan. E.Vinfild esa “bulbul” soʻzining asl koʻrinishini tarjimada saqlab qolgan.

Yoki:

What is the world? A **caravanserai**,
A pied pavilion of night and day,
A feast whereat a thousand Jamsheds sat,
A couch whereon a thousand Bahrams lay.¹³⁴

“Caravanserai”, “caravan” tushunchalari yuqoridagi ingliz tarjimonlarining qalamiga mansub ruboiylar tarjimasi keltirilgan deyarli barcha toʻplamlarda uchraydi. Tarjimon E.FitzJerald tarix, ijtimoiy tizim, din, kundalik

¹³² Whinfield E. “The Quatrains of Omar Khayyam”, London – 1883. , p:190

¹³³ The same source, Quatrain 81, p:125

¹³⁴ Whinfield E. “The Quatrains of Omar Khayyam”, London – 1883.. Quatrain 70, p:120

urf-odatlar va an'analarni ifodalovchi soʻzlarni keltirish orqali ham ruboiyda tasvirlangan jamiyatning yashash tarzi, hayot tarzini tasvirlashga erishgan:

A moment's halt – a momentary taste
Of being from the well amid the waste –
Ans Lo! – the phantom of **Caravan** has reached
The nothing it set out from – Oh, make haste!

Richard Le Gallien ham realiyalarning milliy madaniyatga mansub guruhiga kiruvchi soʻzlardan oʻz tarjimalarida unumli foydalanilgan. Uning tarjimasida parafrasa usulida boʻlgani uchun avvalgi mutarjimlarning toʻrtliklarini mazmun va shaklini oʻzgartirmasdan, boshqa soʻzlar bilan ifoda etilgan ruboiylarda yuqoridagi realiyalarning baʼzilarini saqlab qolib, baʼzilarini tushirib qoldirgan va ingliz tilidagi maʼnosi yaqin soʻzlar bilan almashtirgan:

“Once in a garden this advice I heard,
It was the **Nightingale**, the Rose's bird.”¹³⁵

Oʻz zamondoshlaridan biroz keyinroq Xayyom ruboiylari tarjimasiga qoʻl urgan Artur Talbot esa yuqoridagi eslatib oʻtilgan realiyalardan tashqari “shah”, “bazaar” kabi realiyalarni ham ishlatadi:

In **the Bazaar** I saw, but yesterday,
A potter rudely pounding the fresh clay.”¹³⁶

Yoki:

O **Shah!** Thy brows were crown'd by destiny,
That saddl'd thine imperial steed for thee.”¹³⁷

A.Talbot ruboiylar tarjimasida foydalanilgan milliy xos soʻzlarni bosh harf bilan keltirish orqali milliylikni ajratib koʻrsatishga, kitobxonning eʼtiborini aynan shu sharqona ifodali soʻzlarga qaratishni maqsad qilgan.

Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjimasida 2-guruhga mansub soʻzlar, yaʼni atoqli otlar, kishi nomlari va laqablar ham oʻz ifodasini topgan. Mutarjim Edvard FitzJerald “The Rubaiyat of Omar Khayyam” da bu kabi

¹³⁵ Gallien e R. “Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations”, New York, 1897 p:35

¹³⁶ Talbot Arthur B “The Omar Khayyam quatrains”, Penguins-1906, Quatrain 89, p:80

¹³⁷ The same source, Quatrain 70, p:74

tasviriyl vositalarni tarjima qilishda turli uslublardan foydalangan. Ba'zi hollarda o'zlashtirish (foreignization) uslubidan foydalanib, atoqli otlarni saqlab qoldi. Masalan, Xusrav, Jamshid, Bahrom, Rustam, Mahmud, Zal va Hotamtoy kabi. Bu uslub orqali sharqona jozibani saqladi.

Xayyom ruboiylari tarjimasidagi shunga o'xshash jihatlarni hisobga olgan holda, FitzJeraldning tarjima uslublarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Domestication (moslashtirish)

I sometimes think that never blows so red

The Rose as where some **buried Caesar bled;**

That every Hyacinth the Garden wears

Drop in its Lap From some one lovely Head.¹³⁸

Bu forsiy atamaning to'liq ekvivalenti emas. Ularning bog'liqligi turlicha. Bizga ma'lumki, rim imperatori Sezar eronlik kishi tomonidan o'ldiriladi va bu so'z har jihatdan teng vazifadosh bo'lmaydi. Shunday ekan, FitzJerald tarjimalarida qo'llanilgan Beloved, Tavern, Heavenly Master, lovely houris kabi ekvivalent so'zlar do'st, mayxona, falak hukmdori, hurlar so'zlariga to'liq mos kelmaydi. Bundan tashqari "David", "Jesus" kabi g'arbona koloritga xos kishi nomlarini ham muallif tarjimalarida uchratish mumkin.

2. Foreignization (o'zlashtirish)

Bu Venutti taklif qilgan tarjimaning yana bir uslubidir. Bunda FitzJerald forsiy atamalarni o'zlashtirib ingliz tilida transliteratsiya orqali tarjimada foydalanadi. Masalan:

They say the lion and the lizard keep

The courts where **Jamshyd** gloried and drank deep:

And **Bahram**, that great Hunter-the wild Ass

Stamps Oer his Head- and he lies fast sleep.

Ruboiyning Shoislom Shomammedov tomonidan qilingan o'zbekcha tarjimasida ham ushbu atoli otlardan foydalanilganini kuzatish mumkin:

Bu saroyda Jamshid ichar edi jom,

¹³⁸ FitzGerald E. "The Rubaiyat of Omar Khayyam", 5th edition, 1859, p:100

Endi kiyik, tulki oladi orom.

Bir umr qulonlar ovlar edi u –

O`limga qulonday ovlandi Bahrom.¹³⁹

Quyidagi ruboiyda ham bir nechta atoqli otlar realiyalar vazifasini bajarganini tahlil qilish mumkin:

Well, let take them! What have we to do

With **Kaikobod the Great**, or **Kaikhosru**?

Let **Zal** and **Rustam** bluse as they will.

Or **Hatim** call to supper – heed not you.

FitzJerald fors qahramonlari nomlarini ruboiylarda salmoqli ishlatgan. Kishi nomlarining badiiy ijodda qo`llanilishi xalqning ma'naviy turmush tarzi, afsona va cho`pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa narsalar haqidagi tasavvurlari ifodasini o`zida mujassamlashtiradi.¹⁴⁰

Tarjima biror matnning shunchaki ekvivalenti emas, bu asl nusxani qayta yozishdek qiyin va murakkab jarayon. Bu bir madaniyatning boshqasiga ta'siridir.

Iram indeed is gone with all his Rose,

And Jamshyd's **Seven – ringed Cup**, no one knows,

But still a Ruby kindles in the wine,

And many a garden by the water blows.

Ma'lumki, Bog'i Eram Erondagi afsonaviy bog` nomidir. Jamshid — qadimiy afsonalarga ko'ra, Eronda eng avval hukmdorlik qilgan peshdodiylar sulolasining to'rtinchi va eng buyuk hukmdori. Jamshid sharobni ixtiro etganligi boisidan, shoirlar o'rtasida "Qadahiy" (Jomi Jam) nomi bilan ham mashhurdir. FitzJerald ham katta ahamiyatga ega bo'lgan yuqorida qo`llanilgan madaniy so`zlar zahiriga yashiringan simvolizmni tarjimada kitobxonga yetkazib berishga uringan.

¹³⁹ O`sha manba 46-bet

¹⁴⁰ С а л о м о в Ф. Таржима назарияси асослари. Т: 1990, 101-бет.

Edvard Vinfild ham E.FitzJeralddan ilhomlanib, forsiy atoqli otlarni salmoqli qo'llagan. "Jamshid", "Bahram", "Kai-khosru" kabi keng qo'llanilgan atoqli otlardan tashqari "Solomon", "Kobad", "Kai Kawus", "Tus" kabi kishi nomlarini ham o'z tarjimasida ilk bor qo'llaydi. Masalan:

Love's devotees, not Moslems here you see,
Not **Solomons**, but ants of low degree
Here are but faces wan and tattered rags,
No share of Cairene cloth or silk have we.

Yoki:

One draught of wine outweighs the realm of **Tús**,
Throne of **Kobád** and crown of **Kai Kawús**.

Richard Le Gallien ruboiylarni tarjima qilganda mavjud atoqli otlardan foydalanish bilan chegaralandi. Yangi kishi nomlari Gallien tarjimasida uchramaydi. Faqatgina "Yusuf" nomini boshqa mutarjimlar tarjimasida uchratmaymiz:

If only one dare tell the lovely things
The nightingale unto the red rose songs!
"See! I am **Yusuf's** flower", the red rose cries,
And wide and warm her sanguine bodice flings.¹⁴¹

Shuningdek, Artur Talbot va Edvard Gern-Allen qalamiga mansub tarjimalarda ham yangi atoqli otlar deyarli uchramaydi. Faqatgina "Muhammad" nomi Artur Talbot tarjimasida, "Feridun" nomi esa Edvard Gern-Allen tarjimalar to'plamida keltirilgan:

Regard my virtues singly, bid them live,
But pass my crimes, by tens, through Memory's sieve;
Bear not resentment, God must be the judge;
By great **Muhammad's** Tomb, I say, "Forgive!"¹⁴²

¹⁴¹ Gallien e R. "Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations", New York, 1897 p:84

¹⁴² Talbot Arthur B "The Omar Khayyam quatrains", Penguins-1906, Quatrain 139, p:120

Edvard Gern-Allen ruboiy tarjimasida esa “Feridun” va “Kai Khosru” nomlari uchraydi:

One draught of old wine is better than a new kingdom,
avoid any way save that of wine - 'tis better so;
the cup is a hundred times better than the kingdom of **Feridun**,
the tile that covers the jar is better than the crown of **Kai Khosru**.¹⁴³

Faridun Peshdodiylar sulolasining ikkinchi shohidir. Faridun adolat bilan davlatni idora qilib, keksaygach uch o'g'liga mamlakatni bo'lib berish bilan Hazrat Nuhning maqomlariga erishgan. Faridun barcha hukmdorlar tomonidan namuna bo'lib xizmat qilgan. Barcha eron shoirlari uning saxovati, odilligi va ulug'vorligini kuylab kelishgan.¹⁴⁴

Kayxusrav (Kavi Xaosrava) esa Eron mifologiyasida kayoniylar sulolasidan bo'lgan 3-shoh. "Shohnoma"ga ko'ra, onasi Zahhok qavmidan bo'lgan turonlik Farangis. Otasi Siyovush. Kayxusrav uning tomirlarida faqat yaxshilikka e'tiqod qilganning qonigina emas, yovuzlikka e'tiqod qo'yganning ham qoni oqishini bilib, o'zidagi yovuzlik ibtidosi undagi ezgulikni yengib qo'yishidan xavotirda bo'lib, Kayxusrav taxtni qarindoshi Luhrospga topshirib, o'zi toqqa yo'l oladi va tongda g'oyib bo'ladi. Bahodirlar bedarak ketgan shohni izlashga otlanishadi, kuchli qor bo'roni ularni ko'mib yuboradi va ko'pchilik bahodirlar Kayxusrav kabi abadiy g'oyib bo'lishadi.¹⁴⁵

3-guruhga mansub realiyalar ya'ni jug'rofik nomlar ham Xayyomning ingliz tiliga yuqorida nomlari eslatib o'tilgan tarjimonlar qalamiga mansub tarjimalarda muhim ahamiyatga ega. Edvard FitzJeraldning “FitzOmar ruboiylari” da “Nishapur”, “Bobil” kabi joy nomlari keltiriladi:

Whether at **Nishapur** or **Babylon**,

Whether the Cup with sweet or bitter run.

Edvard Vinfild tarjimalarida esa “Amudaryo” ning forsha nomlanishi ilk bor qo'llaniladi:

¹⁴³ Allen E-H. “The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes” Winds Press, 1973, p:60

¹⁴⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Faridun>

¹⁴⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kayxusrav>

Skies like a zone our weary lives enclose,
And from our tear-stained eyes a **Jihun** flows.¹⁴⁶

Richard Le Gallien ning tarjimalar top`lamida Nishopur, Bobil, Tus, Jayhun kabi jug`rofik nomlardan boshqa yangi joy nomlari ishlatilmaydi. Artur Talbot esa o`z tarjimalarida atoqli otlardan samarali foydalanadi. Jumladan, Balx, Bag`dod, Kavsar, Edem kabi joy nomlarini inglizcha tarjimalarida milliylikni ifoda etish uchun qo`llaydi.

Masalan:

Who cares for **Balkh** or **Baghdad**? Life is fleet;
And what though bitter be the cup, or sweet.¹⁴⁷

Yoki:

Where'er on earth my wand'ring gaze I place,
A garden lav'd by **Kausar**'s stream I trace.
Heaven in the desert, Hell hath disappear'd,
And Paradise is in her Angel face.¹⁴⁸

Kavsar – arabchada mo`l-ko`l degani. Islom diniga ko`ra jannatdagi ajib bir daryo yoki hovuzning nomi. Tafsir va hadislarda aytilishicha Kavsarining suvi asaldan totli, qor va sutdan oq bo`lib, undan ichgan kishi abadiy tashnalik bilmaydi.¹⁴⁹

Diniy xos so`zlar va atamalarga ruboiyot tarjimasida alohida e`tibor berilgan. Chunki buyuk mutafakkir Umar Xayyomning ruboiylari diniy falsafa bilan yo`g`rilgan. Ruboiyotning asl matnida ham bir qancha diniy qadriyatlar o`z aksini topgan. Ruboiyotning ingliz tiliga tarjimasida foydalanilgan diniy realiyalarni uch guruhga bo`lish mumkin:

- ❖ Diniy tashkilotlar va din vakillari nomlari (masjid, cherkov, mulla, shayx)
- ❖ Diniy ibodat bilan bog`liq so`zlar (Ka`ba, mehrob)
- ❖ Diniy marosimlar nomlari (Ramazon, Shavval, Mehroj)

¹⁴⁶ Whinfield E. "The Quatrains of Omar Khayyam", London – 1883. Quatrain 92, p:150

¹⁴⁷ Talbot Arthur B "The Omar Khayyam quatrains", Penguins-1906, Quatrain 47, p:51

¹⁴⁸ The same source ,Quatrain 151, p:102

¹⁴⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kavsar>

Ushbu guruhga kiruvchi realiyalarni Edvard Vinfildning ruboiylar tarjimasida ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, "Ka'ba" so'zini uning qalamiga mansub tarjima ruboiysida uchratish mumkin:

Young wooer, charm all hearts with lover's art,
Glad winner, lead thy paragon apart!
A hundred **Ka'bas** equal not one heart,
Seek not the **Ka'ba**, rather seek a heart!

Bundan tashqari ruboiylarda diniy xos so'zlar "moslem", "Allah", va "shaikh" dan ham foydalanganligini guvohi bo'lamiz:

Love's devotees, not **Moslems** here you see,
Not Solomons, but ants of low degree.¹⁵⁰

Yoki:

When **Allah** mixed my clay He knew full well
My future acts, and could each one foretell;
Without His will no act of mine was wrought;
Is it then just to punish me in hell?¹⁵¹

Shuningdek:

I said, "O **Shaikh**, what does this conduct mean?"
Said he, "Go drink! The world is naught but air."

Edvard Gern-Allen esa ruboiylarida "Mehrob", "Qur'on" so'zlaridan foydalangan:

If I tell Thee my secret thoughts in a tavern,
it is better than if I make my devotions before **the Mihrab** without Thee.

Yoki:

The Qur'an, which men call the Supreme Word,
they read at intervals but not continually.¹⁵²

¹⁵⁰ Whinfield E. "The Quatrains of Omar Khayyam", London – 1883. Quatrain 18-58, p:29-78

¹⁵¹ The same source Quatrain 18 p:36

¹⁵² Allen E-H, The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes" Quatrain 2, 6. pp:-2-4

Artur Talbot ham mohirlik bilan ingliz tili kitobxonlarini ruboiy tarjimalar bilan tanishtirganda, yuqoridagi diniy realiyalar bilan birga “Qur’on” soʻzidan foydalanadi:

We dabble in the **Qur'on** now and then,
Read, and repent, yet fall from Grace again;
But in the goblet is engraved a text
That greets eternally the eyes of men.¹⁵³

Richard Le Gallien “Qur’on” soʻzi oʻrnida “**Book of Joy**”, “**Book of Fate**” parafrazalarini ham qoʻllaydi:

Tis written clear within the **Book of Fate** –
The little always shall oppress the great.

Yoki takrorlardan foydalanib, musiqiylik ifodalangan quyidagi ruboiyda ham “Qur’on” soʻzining boshqa soʻzlar bilan tasvirlanganini koʻramiz :

So I be written in the **Book of Love**,
I have no care about that book above;
Erase my name, or write it as you please –
So I be written in the **Book of Love**.¹⁵⁴

Shuningdek, mutarjim “Allah” soʻzini ishlatish bilan birga uning inglizcha tarjimasidan ham ruboiylarda foydangan:

From **God**’s own hand this earthly vessel came,
He shaped it thus, be it for fame or shame;
If it be fair – to **God** be all the praise,
If it be foul – to **God** alone the blame.¹⁵⁵

Bunda “Olloh” soʻzining “Allah” emas balki, “God” tarzida oʻzgartirilishi muallif maqsadining roʻyobga chiqishiga yoʻl qoʻymaydi. Edvard Gern-Allen esa tarjimalarida “Rabbi” koʻrinishidan ham foydalangan:

Rabbi, thou hast broken my jug of wine;
Rabbi, thou hast shut upon me the door of happiness;

¹⁵³ Talbot Arthur B. “The Omar Khayyam quatrains”, Penguins-1906, Quatrain 6, p:2

¹⁵⁴ Galliene R. “Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations”, New York, 1897 p:46

¹⁵⁵ The same source p:47

thou hast spilled my pure wine upon the earth;
may I perish! but thou art strange, O **Rabbi!**¹⁵⁶

An'analar va urf-odatlar ham diniy madaniyatning bir bo'lagidir. Xoh to'y, xoh motam, xoh festival bo'lsin, uning ortidagi tarixi, ahamiyati, zamiriga yashiringan simvolizm tarjimon uchun qiyinchilik tug'diradi. Edvard FitzJerald, Edvard Vinfil'd tarjimalarida "Ramazon" atamasi ko'p uchraydi:

As under cover of departing day
Slunk hunger-stricken **Ramazan** away
Once more within the Potter's house alone
I stood, surrounded by the shapes of clay.

Ramazon arablarda islomdan avvalgi 4 muqaddas oydan biri; dastlab yoz fasliga to'g'ri kelgan. [Islom](#) dini joriy etilishi arafasida [Makkada](#) Ramazon oyida yaxshi amallar qilish an'ana bo'lgan. Tarjimon bu so'zni oddiy atama sifatida izoh berib o'tirmasdan ruboiyda shundayligicha keltirgan.

Umar Xayyom ruboiylari ichida ham so'fiyona g'oyalarni ifodalaganlari bor. Edvard FitzJerald ham tarjimalarda bu qarashlarni saqlab qolishga harakat qilgan. Jumladan, "sufi", "dervesh" atamalari uning tarjimalarida uchraydi:

Whereat some one of the loquacious lot –
I think a **Sufi** pipkin – waxing hot.

Yoki:

The Vine had struck a fiber: which bout
It cling my Baing – let the **Dervish** flout.

Tasavvuf ahli ba'zan oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, zohid, so'fi, orif, devona, ahli muhabbat, ahli suluk, rijolulg'ayb, savdoyi, gado kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan.

Demak, Xayyom ruboiyoti tarjimalaridagi milliy o'ziga xosliklarni va davr koloritini tarjimada qayta yaratishni qahramonlarni o'rab turgan ijtimoiy va moddiy muhit, predmetlar dunyosi, turmush tarzining o'ziga xosligini o'ziga til kitobxoniga to'la anglatish orqali hamda urf-odat, udumlar, marosimlar, e'tiqod,

¹⁵⁶ Allen E-H "The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes" Quatrain 141. Winds Press, 1973 p:-189

axloqiy aqidalarni qayta yaratish bilan, shuningdek, tasvirlangan voqealar, hodisalar, xarakterlarda aks etgan, ularga singib ketgan davr koloritini to'la saqlab qolish orqali ifodalanashini kuzatish mumkin.

III bob bo'yicha xulosa.

Umar Xayyom ruboiylarining ingliz tiliga tarjimalari obrazli uslubiy vositalar, ko'chma ma'noli so'zlar, chiroyli badiiy ifodalarga boy holda g'arb adabiyoti ixlosmandlariga taqdim qilingan. E.FitzJerald, E.Vinfild, A.J. Alberri, R.Gallien, E.Gern-Allen, A. Talbot kabi tarjimonlar o'zlarining she'riy va nasriy tarjimalarida metafora, metanimiya jonlantirish, sifatlash, alliteratsiya, takror, antiteza kabi uslubiy vositalar bilan sharq so'z san'atining o'ziga xosliklari va ruboiylar badiiyatini imkon qadar qayta yaratishga erishgan.

Ruboiyotning asliyatdagidek ohangi, g'oyasi, mazmuni, milliylik xususiyatlari bilan tarjima qilinishida realiyalarning o'rni muhimdir. Fors qahramonlari nomlari (Jamshid, Kay Xusrav, Faridun, Bahrom), jug'rofik nomlar (Balx, Nishopur), madaniy so'zlar (darvish, bulbul, soqiy), diniy xos so'zlar va atamalar (Ka'ba, Qur'on) tarjimada Xayyom ruboiylari zamirida yashiringan simbolizmni kitobxonga yetkazib berishga uringan. Ruboiydagi milliy xos so'zlar ma'naviy va moddiy hayot, afsona va cho'pchaklar, tarix, din, adabiyot va san'at kabi atamalar va tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Xulosa

Jahon hamda o'zbek nazm muhlislari orasida o'z o'rniga ega forsigo'y so'z san'atkorlaridan biri Umar Xayyomning donishmandona ruboiylarining ingliz tiliga tarjimalarini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi xulosalarga keldik:

1. X-XIII asrlarda O'rta Osiyo va Eronda fors – tojik tilidagi adabiyot keng ko'lamda taraqqiy etdi. Bu davrda Firdavsiyning “Shohnoma”, Shayx Sa'diyning “Guliston”, Jomiyning “Bahoriston” va Rumiyning “Masnaviy” lari dunyoga keldi. Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy nomi iste'dodli xamsanavis sifatida tarixda qoldi. Umar Xayyomning mashhur falsafiy ruboiylari ham shu davrda yaratildi.

Sharq adabiyotining zavq-shavqi, rang-barangdorligi va jozibadorligi o'z ifodasini topgan yuqoridagi mumtoz asarlar XVIII asrdan boshlab yevropa sharqshunoslarining ilhom manbaiga aylandi. “Ming bir kecha” tarjimasi orqali boshlangan ingliz adabiyotidagi sharq an'alarining asoslari R.Nikolson, E. Braun, U. Chittik, A.J.Arberri tomonidan yillar davomida shakllantirib borildi. F.Attor, A.Jomiy, H.Sheroziy va J.Rumiy kabi bir guruh tasavvuf ta'limoti vakillarining adabiy merosi so'fiylik ta'limotining durdonalari sifatida tez orada g'arbda tanildi. Ingliz adabiyotidan betakror ruboiylari bilan o'rin olgan fors she'riyatining namoyondalaridan biri Umar Xayyomning ruboiylari ham asrlar osha til, madaniyat va etnik kelib chiqishi nuqtayi nazaridan chegara bilmay kelayotganini ta'kidlash lozim.

2. Jahon adabiyotida Umar Xayyom qalamiga mansub “Ruboiyot”ga qiziqish XX asrda yanada kuchaydi. Sharq klassik durdonalarining ko'pchiligi dastlab rus tilidagi tarjimasi orqali g'arb adabiyoti xazinasidan joy olgan bo'lsa, Umar Xayyom ruboiylari jahon adabiyotidagi o'z o'chmas o'rnini Edvard FitzJerald an'anasini davom ettirgan ingliz mutarjimlarining mohirona tarjimalari orqali topdi. Bu tarjimalarning ba'zilar asl forsiychadan, ko'pchiligi esa oldingi ingliz tilidagi tarjimalarga tayanilgan bo'lsada, ulardagi Xayyomona ohang shunchalik ta'sirchan berilganki, g'arb kitobxonlari sharhlarga tayanib, ushbu tarjima ruboiylarni sevib o'qiy boshladilar. O'sha davrdan 154 yil o'tdiki, Xayyom

ruboiylarining shuhrat yulduzi haligacha so'ngani yoki yana boshqa ko'plab tillarga qayta-qayta tarjima qilish jarayoni to'xtagani yo'q.

3. Umar Xayyom ruboiylari rang-barang mavzular majmuidan tarkib topgan. Ushbu mavzular turlicha tasvirlangan hayotiy masalalarni aks ettiradi. Ruboiylarning ko'pchiligini tashkil qiluvchi "umr o'tkinchi, vaqtni chog' o'tkaz" mazmunidagi ruboiylarda to'xtamasdan o'tib ketayotgan bu hayotning barcha zavq-shavqlaridan bahramand bo'lishga chorlanadi. Umuman, ishq va hayot, inson tafakkurining qudrati, umrning ma'nosi, insoniy fazilat va qusurlar, ma'rifat va jaholat kabi mavzular shoir ruboiylarining asosini tashkil etadi. Faylasuf-shoir hayotiy savollarga javob topishga urinadi va uni maydan, yor vaslidan, lazzatdan, tabiat go'zalligidan, axloqiy yuksaklikdan, falsafiy tafakkurdan izlaydi. Ingliz tilida qilingan tarjimalarda ham Xayyom ruboiylarining to'la,shirasi, ohangi, mazmuni chiroyli o'xshatishlar, inkor etib bo'lmaydigan misollarda o'z aksini topgan.

4. Sharq she'riyatida ingliz adabiyoti uchun u qadar xos bo'lmagan ma'noning haddan tashqari serqirraligi, nihoyatda boyligi, kinoya va majoz kuchliligi, ishoralarga o'ta moyillik va so'zning sermano jilolarga egaligi mavjud. Inglizchaga Xayyom va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini ko'ngildagidek tarjima qilishga erishish uchun, shubhasizki, ingliz adabiy jarayonida, tarjimashunosligida sharq so'z san'atining o'ziga xosliklari haqida yetarlicha tasavvurlar to'la shakllangan bo'lishi kerak. Ingliz tarjimonlari ham metafora, metonimiya, jonlantirish, o'xshatish alliteratsiya, takror, antiteza kabi obrazli uslubiy vositalar va ko'chma ma'noli so'zlarni ko'plab ishlatish orqali Xayyom asarlarini badiyatini imkon qadar qayta yaratishga erishganlar. Ruboiyot tarjimasida qo'llanilgan tasviriy vositalar emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, she'rning ohangdorligi va mayinligini aks ettirishga xizmat qilgan.

5. Asar yozilgan tilni chuqur va mukammal bilmay, muhit va davrni o'rganmay, muallif tasvirlagan xalqning urf-odatlarini bilan yaqindan tanishmay turib, badiiy barkamol tarjima asari yaratish qiyin, shubhasiz. Ingliz tarjimonlari

Edvard FitzJerald, Edvard Vinfild, Richard Le Gallien, Edvard Gern-Allen va Artur Talbot kabilar realiyalar va milliy o`ziga xoslikni ifodalovchi so`zlarni badiiy tarjimada qo`llash orqali ruboiylar asliyatidagi milliy bo`yoq va milliy manzarani aks ettirishga intilganlar. Jumladan, tarjimalarda Edvard FitzJerald “dervish”, “ferrash”, “hour”, “Mah”, “hubbub”, “Caravanserai”, “caravan”, Xusrav, Jamshid, Bahrom, Rustam, Mahmud, Zal va Hotamtoy kabi realiyalardan; Edvard Vinfild “Sultan”, “shaikh”, “bulbul”, “Solomon”, “Kobad”, “Kai Kawus”, “Tus”; Artur Talbot esa “shah”, “bazaar”, “Muhammad” kabi milliylik, tarix, ijtimoiy tizim, kundalik urf-odatlar va an`analarni ifodalovchi so`zlarni keltirish orqali ham ruboiyda tasvirlangan jamiyatning yashash tarzi, hayot tarzini tasvirlashga erishganlar. Diniy xos so`zlar va atamalarga ham ruboiyot tarjimasida alohida e`tibor berilgan. “Ka`ba”, “moslem”, “Allah”, “shaikh”, “Mehrob”, “Qur`on”, va “Ramazon” kabi diniy realiyalarni shular jumlasiga kiritamiz. Ruboiylar tarjimasida foydalanilgan milliy xos so`zlarni bosh harf bilan keltirish orqali ingliz tarjimonlari milliylikni ajratib ko`rsatishga, kitobxonning e`tiborini aynan shu sharqona ifodali so`zlarga qaratishni maqsad qilgan. “Ruboiyot” tarjimasida foydalanilgan madaniy xos so`zlar, kishi nomlari, jug`rofik nomlar va diniy realiyalar kabi milliylik aks etgan so`zlar she`riyatdagi milliy ruhiyatni tasvirlashga xizmat qilgan.

Umar Xayyom ruboiylari mana necha asrlardan beri insonlarning ma`naviy dunyosini boyitishdek vazifasini bajarib kelgan. Darhaqiqat, uning ruboiylari kishilarga yuksak insoniy qadriyatlar, axloq-odob, yaxshi sifatlarini shakllantirishi, borlarini rivojlantirishi kabi ezgu niyat va ishlarga xizmat qilishga chorlaydi. G`arb va Sharq nazm muxlislari tomonidan birdek sevib o`qib kelinayotgan ushbu ruboiylar keyingi davrda ham o`z ahamiyatini yo`qotmasligi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

- 1.1. Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”// Баркамол авлод—Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. —Т.:Шарқ, 1997.
- 1.2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.// Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. —Т.: Шарқ, 1997.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1875-sonli Qarori.

II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar:

- 2.1. Бакоева М. “Инглиз ва узбек шеър тузилишларини киесий урганиш ва таржима муаммолари”, Бухоро – 2006. –232 бет
- 2.2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. «Ўзбекистон»-2002. –556 бет.
- 2.3. Умар Хайем. Рубоийлар.// Тузувчи Ш.Шомухаммедов. /. – Т.: «Шарк»-2003. 127 бет
- 2.4. Шомухамедов Ш. Гуманизм – абадийлик ялови. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. 246 бет
- 2.5. Гулом Ғ. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. Т.3. -Т.: “Фан”,1984.
- 2.6. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент, 1983. 376 бет
- 2.7. Ҳомидов Ҳ. «Кирк беш аллома хикояти». Фан-1995. 176 бет
- 2.8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008
- 2.9. Влахов С. И., Флорин С. П. «Непереводимое в переводе». М.: 1980.
- 2.10. Комиссаров В.Н. «Современное переводоведение». М-2004
- 2.11. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Т.: “Ma’naviyat”, 1999. – 280 bet.
- 2.12. Furo’g’iy M. va G’aniy Q. “Umar Xayyom Nishopuriy. Ruboiyot. – Tehron: “Ketob-e fo’ruzon”, 1362 (1983). – 107 bet.
- 2.13. Aminrazaviy M.. Sahbo-ye xerad / Hoqoniy yozishmalari. – 333 bet.

- 2.14. Zakovatiy Q.A. Xayyom qarashlariga oid mulohazalar. // “Sino”, 2011, bahor-yoz. №41-42.
- 2.15. Arberri A.J. “Omar Khayyam: A new version based upon recent discoveries”, London, 1956.
- 2.16. Avery P. and Heath-Stubbs J, The Ruba'iyat of Omar Khayyam, (Penguin Group, 1981)
- 2.17. Azmi I, The mirror & the eye: Ruba'iiyat of Omar Khayyam, Whittington, [cop. 1984]
- 2.18. Burton W. G..”One hundred and fifty Ruba'iiyat of Omar Khayyam;” Ryde, Francon, 1968
- 2.19. Cadell J. “The Quatrains” [London] : D. Nutt, 1899
- 2.20. Donald O. and M , 'Zodiac Light, False Dawn, and Omar Khayyam', The Observatory, vol. 108, (1988) p. 181-182
- 2.21. Edward H-A. “The Rubaiyat of Omar Khayyam, a facsimile of themes”, Podleian Library, H.S.Nichols.Ltd, London 1898,
- 2.22. Emami K. “ The Wine of Nayshabur:”, Paris, Souffles, 1988
- 2.23. FitzGerald E. “The Rubaiyat of Omar Khayyam”, Christopher Decker, University of Virginia Press, 1997
- 2.24. Galliene R. “Rubaiyat of Omar Khayyam, a paraphrase from several literal translations” New York, 1897
- 2.25. Graves R. and AliShah O. “The original Ruba'iiyat of Omar Khayyam; a new translation with critical commentaries” - Tucson, Omen Press, Inc., 1972
- 2.26. Javadi H. “Persian literary influence on English literature (Calcutta: Iran society, 1983)
- 2.27. Jermin S. “Loaves of Bread and Jugs of Wine: Three translations of Omar Khayyam” – a research article in Meta, XXXIV, 2, 1989. p 342
- 2.28. Jones W. “The works of Sir William Jones, with the life of the Author” 13 vols. (London: J. Stokdeyl & J. Uolker, 1870)
- 2.29. Konant M.P. “The Oriental Tales in England in the eighteenth century”, Columbia UP, 1908

- 2.30. Leask N, “British Romantic writers and the East” (Cambridge:Cambridge UP,1992)
- 2.31. Mahmoud P. The Ruba’iyyat. Tehran: San’at Rooz (Kashani) Press, 1996 p:10
- 2.32. McCarthy J.H. MP “Omar Khayyam, Rubaiyat of Omar Khayyam” [London] D. Nutt, 1889.
- 2.33. McGann Jeromi J., ed “Lord Byron.The Completed Poetical works” (Oxford,1981)
- 2.34. Newmark P.A. Approaches to translation. London:2001
- 2.35. Nida E. “Towards a science of translation” Leiden.1964
- 2.36. Powell F.P. “Quatrains from Omar. “Monroe : The Sunnyside Press, 1936,
- 2.37. Whinfield E. “The Quatrains of Omar Khayyam”, London – 1883.

III.Ilmīy monografiya, maqolalar va boshqa asarlar

- 3.1. Файзуллаева Р. Йўллар йироқ, кўнгиллар яқин // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976, 205 бет
- 3.2. Ҳамроев Ҳ. Миллий хос сўзлар – реалиялар ва бадий таржима // Таржима маданияти (Мақолалар тўплами). – Тошкент, 1982. 150 бет
- 3.3. Norbayeva M.U.“Badiiy matndagi stilistik tasviriy vositalarning lingvokognitiv tadqiqi”, Ilmiy xabarnoma, ADU, №2, 2014-yil, 82 bet
- 3.4. Mashhady H., Noura M. “FitzGerlad’s approach to translation” a research article in “ International Journal of Scientific & Engineering Research” Volume 3, Issue 4, April-2012 128 pages

IV. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

- 4.1. Sabzi A. “Edvard FitzGerald’s Translation of Rubaiyat of Omar Khayyam”, (MA Student in Translation Studies).Bahonar University of Kerman, 2015. 27 pages
- 4.2. Zare-Behtash E. “FitzGerald’s Rubáiyát: A Victorian Invention” - A thesis submitted for the degree of Doctor of Philosophy of the Australian National University August 1994, 219 p-s

V. Internet manbalari

- 5.1. <http://kh-davron.uz/tag/umar-xayyom/> Ja'far Muhammad. Falak jomidan may sipqorgan Xayyom
- 5.2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Umar_Xayyom
- 5.3. https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture
- 5.4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Jami>
- 5.5. <http://referat.arxiv.uz/Sharq> va G`arb adabiy aloqalari
- 5.6. https://en.wikipedia.org/wiki/Persian_literature_in_Western_culture
- 5.7. <http://n.ziyouz.com/maqolalar/ja-far-xolmo-minov-jaloliddin-rumiy-va-g-arb-adabiyoti>
- 5.8. https://en.wikipedia.org/wiki/Rubaiyat_of_Omar_Khayyam
- 5.9. https://en.wikipedia.org/wiki/Rubaiyat_of_Omar_Khayyam#Translations
- 5.10. <https://www.omarkhayyamnederland.com>